

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT**  
**PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
Musiqqa ta'limi fakulteti

Defektologiya kafedrası

“Himoyaga ruxsat etilsin”

fakultet dekani

\_\_\_\_\_ dots.R.Abdurasulov

\_\_\_\_\_ 2013 yil

5111900 - “ Defektologiya ”

Ta'lim yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:** “ Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari”

**Bajaruvchi:** “ Defektologiya ” yo'nalishi IV kurs talabasi  
Normatov Hasan

**Ilmiy rahbar:** dots.F.Mamatqulov.

**Ilmiy maslahatchi:** dots. G'. Arifho'jayev

**Ishni himoyaga tavsiya etaman:**

\_\_\_\_\_ (ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI Defektologiya kafedrası  
yig'ilishining  
qarori bilan (Qaror № \_\_\_\_\_ 2014 y)  
himoyaga tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**dots. G'. Arifho'jayev**  
(Ismi sharifi)

\_\_\_\_\_ (imzo)

**JIZZAX 2014**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda  
innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari

**MUNDARIJA**

<b>KIRISH</b> .....	3-13
<b>I BOB.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari.....	14- 46
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida .....	14- 21
1.2. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning amaldagi ahvoli.....	22-36
1.3. O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi.	37-46
<b>II BOB.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari.....	47-62
2.1. O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati.....	47-56
2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlari .....	57-62
<b>Umumiy xulosalar</b> .....	63-67
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati</b> .....	68-69.

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatilganidek, shaxsning har tomonlama uyg'un kamoloti va o'z qobiliyati hamda malakalarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini, samarali mexanizmlarini yara-tish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchdir. Bu hujjatlarda komil inson va barkamol shaxs tayyorlash masalalariga alohida urg'u berilgan.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishini, ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega

O'zbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari xam diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta'lim elementlari talaygina. Kup yillardan beri umumta'lim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o'z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir rayondagi yordamchi mexnat ta'limi maktabi, me'yorda rivojlangan bolalar ta'lim oluvchi muassasalarda ulgurmovchi o'quvchilar bilan yil davomida ma'lum ishlarni olib borishmoqda, ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta'lim shakllaridan biri bo'lib xisoblanadi.

Bunday nufuzli tashkilotning asosiy maqsadi - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolalarni himoyalash, xuquqlarini tiklash, vakolat berish, talim-tarbiya tizimini shakllantirish, jamiyat va raxbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.

Aloxida yordmga muxtoj bulgan bolalar uchun tashkil etilgan talim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari urganiladi, Ushbu talim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya ,reabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta'minlash; yura olmasa-nogironlar

aravachasidan foydalanish, qulida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirilgan va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxurlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar ukuv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv-jalb etish (vklyucheniye) degan ma'noni anglatadi, ya'ni jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro bog'lanib, birgalikda ta'lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish, nuqsonidan kelib chiqqan xolda ma'lum u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bulsa, dastur va rejani qisman o'zgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Xar bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bulib, u gurux tarbiyachisiga maslahatlar beradi va kumaklashadi: maxsus o'qitish uskunalari, aparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o'tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bo'lsa, o'zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim maxoratini boyitadi; sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muxitni yaratadi. Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bulim tashkil etilishi mumkin. Funktsional integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funktsional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun aloxida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik tugarak va sportga jalb etish foydalidir. Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va me'yorda rivojlangan bolalarni uzaro dustlashishga, bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi, me'yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bulishga o'rgatadi. Jamiyat nogiron kishilarga tug'ri munosabatda bulishi kerak. Konstitutsiyamizdagi barcha bandlar ular uchun ham ta'alluqli. Har qanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki

ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g‘amhurlik kursatiladi.

Integratsiyalashgan-mujassam, ajratib brlmaydigan qism degan maunoni bildiradi. Xar bir bola ta’limga jalb etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barchalar teng xuquqga ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta’lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi.

Korreksion pedagogika fanining maqsadi-anomal bolalarga integratsiyalashgan-inkiyuziv xamda differensial ta’limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni urganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yullarini tarbiyachi hamda o‘qituvchilarga ko‘rsatib berishdan iborat. Anomaliyalar har xil bo‘ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba’zilari esa kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo‘pol kamchiliklar bo‘lsa, to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik choralarni o‘z vaqtida ko‘rish yo‘li bilan ularni to‘liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug‘ma ko‘rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘rnini bosipsh mumkin. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya’ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Korreksion pedagogika nisbatan yangi fan. U asosan XIX asrning o‘rtalarida rivojlana boshladi. 1925 yilda Moskva shaxrida Eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor Vigotskiy L. S. boshqardi.

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. U “Korreksion

pedagogikaning asosiy muammolari” kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo’llarini ko’rsatib berdi. L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o’rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sobiq sovet psixologiyasi va defektologiyaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo’ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o’rganib, "rivojlanishning tuxtash nazariyasi", "chegara" degeneratsiya nazariyasi", "ma’naviy defektli" kabi g’ayri ilmiy va reaksion nazariyalarni fosh etdilar.

Anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta’lim ta’siri ostida qanday o’zgarib borishini o’rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy ham salbiy tomonlarni aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o’tkazildi.

Sog’lom va anomal bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishini I. M. Solovyev ham har tomonlama o’rgandi. “Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi” nomli kitob shu ishning natijasi bo’ldi. I. M. Solovyev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o’rganishda chinakam novatorlik ko’rsatdi.

Muhtaram Prezidentimiz o’zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – talim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo’lishi lozim”, deb ta’kidlaydi.<sup>1</sup>

Yangi ming yillikda xalqimizning taraqqiyot yo’lida turli muammolar mavjud ekan, avvalo, ularning to’g’ri yechimini topish zarur. Bu asosan o’zligini anglayotgan insonlarga, ijtimoiy hayotda o’z mavqesiga ega bo’lgan ziyolilar

---

<sup>1</sup>. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent – 2008 y

bog'lik. Bizning vazifamiz fan–texnikaning yuksak saviyada egallagan, jahon standartlari darajasiga mustaqil fikrlovchi, intellektual ko'rsatgichi yuqori bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda. Bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekiston Respublikasida aholini davolash profilaktika yordamida kengaygani ham medisina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak , o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qolishi hodisalariga tamomila deyarli barham berildi. Irsiy omillar hamda intoksikasiya va organism shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolishi hollari hali ham uchrab turadi.

Hozirgi kunda surdopedagogikada kar va zaif eshituvchi bolalarning maxsus ta'lim bilan erta qamrab olinishi, rivojlanishi, korreksiya-kompensatsiya qilinishi masalalari dolzarbdir. Respublika ijtimoiy adaptatsiya markazi, Avloniy nomidagi **XTXMO** instituti xamda RTM xodimlari buning uchun uslubiy ko'rsatmalar yaratish ustida faol mexnat qilib kelmoqdalar. <sup>2</sup>

---

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi.L.S.Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Bu borada atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sobiq sovet psixologiyasi va

---

<sup>2</sup> Xerbakov A.I. Praktikum po obxey psixologii. M., Prosvexenie, 1990.

defektologiyaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning tuxtash nazariyasi", "chegara" degeneratsiya nazariyasi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy va reaksiyon nazariyalarni fosh etdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy ham salbiy tomonlarni aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Sog'lom va anomal bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishini I. M. Solovyev ham har tomonlama o'rgandi. "Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi" nomli kitob shu ishning natijasi bo'ldi. I. M. Solovyev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o'rganishda chinakam novatorlik ko'rsatdi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb muommolaridandir. Anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llariga oid ilmiy tadqiqot ishlariga nazar tashlasak, bu yo'nalishdagi muammoni o'rganish juda qadimdan boshlanganligini ko'ramiz. L.S. Vigotskiy safdoshlari L.K. Zankov va Sh.M. Solovyov rivojlanishida nuqsoni mavjud xususan eshitishida nuqsoni bor bolalar idrokining xotirasi va nutqi rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik tadqiqotlar o'tkazdilar. Xususan, K.I. Veresotskaya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni predmetlarni idrok etish, L.V. Zankov va D.R. Mayns ko'rgazmali materialni eslab qolish malakasini, M.M. Nudelman kar o'quvchilar tasavvurlarini, Z.S. Beyn ko'ruv idrokining kon-stantligini, N.I. Shif eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni rang-larni idrok etish xususiyatlari, M.Y. Votsev kar o'quvchilarning yozma nutqi va o'qish malakalarini tadqiq etganlar. Sobiq sovet psixologiyasining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L.S. Vigotskiy, K.K. Mamedov, G.B. Shoumarov, V.P. Podobed P.P. Blonskiylar, keyinchalik Pulatova F.M. V.S. Raxmanova B.B. Shoumarov va boshqalar shug'ullanganlar.

Mavzu yuzasidan Pulatova F.M. V.S.Raxmanova Ў.B.Shoumarov va boshqa respublikamizning yetuk olimlari olib borgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan. O'quvchilarning korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari borasida P.M.Po'latova Muminova L., Ayupova M Rahmonova.V.S K.K.Mamedov., M.I.Soatov,P Sodikova.G.A., Nurkeldieva D.A. T.A.Vlasova., M.S.Pevzner kabi olimlarning anomal psixologiya haqidagi ilmiy – nazariy va amaliy – metodik qarashlari, tajriba va izlanishlari bilan katta hissa qo'shganlar. Ammo aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari muammosini aniqlashga bag'ishlangan muammo o'zining mukammal psixologik yechimini topmagan. Shuningdek biz BMIimizni boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini o'rganishining psixologik ahamiyatidan kelib chiqib “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari” deb tanladik.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini o'rganish

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

- tadqiqotimiz muommosidan kelib chiqqan holda mavjud ilmiy manbalarni tahlil etish va shu asosda ilmiy xulosalar qilish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini o'rganish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari va ahamiyatini o'rganish.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini aniqlash va olingan ilmiy xulosalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti:**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni Jizzax shahridagi o'rta maktab o'quvchilari.

**Bitiruv malakaviy ishining metadalogik asosi:**

Sharq xalqlarining tarbiyaviy goyalari mazmunini o'zida mujassam etgan xalq pedagogikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning yoshlar tarbiyasi haqidagi nutq va asarlari "ta'lim to'grisida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlashning milliy datsuri" va pedagogika, psixologiya, defektologiya va maxsus psixologiya fanlari erishgan yutuqlar tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishida asosan L.S.Vigotskiy, K.K.Mamedov, G.B Shoumarov, V.P.Podobed, P.P.Blonskiylar, keyinchalik Pulatova F.M., V.S.Raxmanova, T.B.Shoumarov kabi olimlarning ilmiy fikrlaridan va kitoblari foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:**

- Mavzuga oid adabiyotlarni, o'rganish va tahlil qilish.
- O'quvchilarning o'ziga xos psixologik jarayonlarini o'rganish bo'yicha tuplangan ilg'or ish tarbiyalarini tahlil etish va unumlashtirish.
- o'quvchilar bilan suhbatlar uyushtirish so'rovlar o'tkazish. Intervyu, kuzatish, suhbat, test, anketa va ekspremental metodlar yordamida o'quvchilar ijodiy hislarini aniqlash

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi:**

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lishi mumkin.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish psixik jabhalarning normal rivojiga ham bog'liq.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish moddiy va ma'naviy shart – sharoitlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

### **Bitiruv malakaviy ishini himoyaga olib chiqiladigan xolatlar:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazish muommosi qadimdan tadqiq etib kelinayotganligiga qaramasdan, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish usullari tajqiq etilmagan va bu muommo yechimini kutayotgan muommolardan biri.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish usullari yuzasidan yetarli manba mavjud emas. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning psixologik jihatlarini asos qilib olish maqsadga muvofiq.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish usullari o'ziga xos psixologik xususiyatga ega. Bu xususiyatlar Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish usullariga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish usullari, o'quvchilar psixik jarayonlarini o'sishi atrof muhit, ijtimoiy muhit, tarbiya jarayonining ta'sirida namoyon bo'ladi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yaratilgan shart – sharoitlar hamda berilgan imkoniyatlardan foydalana bilishga bog'liq.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari aniqlandi. Inson ongining sog'lom rivoji psixologik jarayonlarning normal rivoji, muhit, ta'lim - tarbiya usullari, hamda yetarlicha moddiy – ma'naviy shart – sharoitlar bilan bog'liqligi tadqiq etildi.

Muommoning bunday o'rganilishi Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarining psixologik jihatlari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni to'ldirdi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati:**

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy adabiyotlar sharhi, manbalar taxlili, ilgari surilgan nazariy g'oyalar va ishlab chiqilgan xulosalar maxsus psixologiyadagi nazariy bilimlarni yanada boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa psixologik holatlarning rivoji, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari muommolari e'tiborga loyiqdir. Ushbu sohaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda shakllantirishning psixologik mehanizmlarini o'rganish bu sohadagi ilmiy ta'limotlarni ma'lum darajada to'ldiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini o'rganish bo'yicha metodik usullar hamda rivojlantirish sifati va samaradorligini oshirishda, bugungi madaniy dunyoga milliy qiyofali ijtimoiy faol, ulug'vor maqsadlarga intiluvchi, voqyelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradigan, axborotlarni tahli va taqrib qila oladigan o'quvchilarni tarbiyalashda muhim ro'l o'ynaydi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:**

O'rganilgan muommo yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar defektologlar,

psixologlar, o'qituvchilar, ota – onalar, o'quvchilar, talabalar, uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Malakaviy bitiruv ishi materiallari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini bilish bo'yicha uslubiy tafsiya bo'lib xizmat qilishi mumkun.

### **Ishning tuzilishi va xajmi:**

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 5 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

### **Bitiruv ishining umumiy mazmuni:**

Ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsadi va vazifalari, ilmiyligi, amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ishning birinchi bobida Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari ded nomlanib unda, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida, Kichik maktab yoshi o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning amaldagi ahvoli, O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi psixologik jihatdan tahlil qilingan.<sup>3</sup>

Ishning ikkinchi bobida Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlarini o'rganishga qaratilgan nazariy fikrlar yoritilgan. Ishning xulosa qismida har ikkala bobdan kelib chiqib, umumiy xulosalar yoritilgan.

---

<sup>3</sup> Goziev E. Intellekt psixologiyasi. T., O'qituvchichi, 1996.

## **I.BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari.**

### **1.1.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida**

Butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rini topib ketish huquqlariga egadirlar. Bola huquqlari haqidagi Konvensiyaning 19 moddasiga ko'ra "Bola ota-ona yoki har qanday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanishi, qo'pol muomilada bo'lishdan himoyalaniishi huquqiga egaligini inobatga olib, ayrim mamlakatlarda ilgari ishlatiladigan atamalardan "korreksion pedagogika", "anomal bolalar", "aqlan zaif" kabi va boshqalardan voz kechmoqdalar. Inson huquqlari deklaratsiyasi, bolalar konvensiyasi talablaridan kelib chiqqan xolda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni kamsitmaslik, xaqoratlamaslik uchun masalan, Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti "Korreksion pedagogika ilmiy tadqiqot instituti" deb nomlanmoqda. Defektologiya fani ko'p mamlakatlarda korreksion pedagogika deb yuritilmoqda. Korreksion pedagogika fanining predmeti - anomal bolalar, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar (yunoncha anomalos - odatdan tashqari), norasao degan ma'noni bildiruvchi so'zi bilan yuritiladi. Xozirgi kunda O'zbekistonda Korreksion pedagogika — aloxida yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Korreksion pedagogika so'zi lotincha tuzatish — bartaraf etish, pedagogika — ta'lim-tarbiya, urganish degan suzlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomalos suzidan olingan). Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, aloxida yordamga muxtoj bolalardir. Korreksion pedagogikaning vazifasi — anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal

bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini urganish, shular, asosida integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Korreksion pedagogika fanining maqsadi — anomal bolalarga integratsiyalashgan-inkiyuziv xamda differensial ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni urganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yullarini tarbiyachi hamda o'qituvchilarga ko'rsatib berishdan iborat. Anomaliyalar har xil bo'ladi, ularning ba'zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba'zilari esa kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo'pol kamchiliklar bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rni bosipsh mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.<sup>4</sup>

Korreksion pedagogika nisbatan yangi fan. U asosan 19 asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. 1925 yilda Moskva shaxrida Eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor Vigotskiy L. S. boshqardi.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturi, o'z ichiga psixologik va pedogogik muammolarni qamrab oladi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga

---

<sup>4</sup> X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev Pedagogik psixologiya T-2007.

oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi va butun ma'suliyat uning zimmasiga tushadi.

- rivojlantiruvchi va psixokorreksiya ishlar psixolog tomonidan har-xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi;

- bunda amaliy psixologning maxsus ishi, mashg'uloti ayrim bolalar, o'quvchilar bilan alohida o'tkazilishi rejalashtiriladi;

- psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, o'quvchilar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;

- bu kabi ishlarni ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida olib borish nazarda tutiladi,

- rivojlantiruvchi va psixokorreksiya ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksiya ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o'z aksini topsin.

Psixologik-korreksiya qilish uchun albatta psixologik trening mashg'ulot va mashqlaridan foydalaniladi. Psixologik-korreksiya, ya'ni tuzatish ishlari olib borish orqali ilgari kuzatilgan dezadaptiv sifatlar yo'qolib, ularning o'rnini ijobiy sifatlar egallaydi. Xuddi shu maqsadda, Toshkent shahri YUnusobod tumanidagi 288, 273-o'rta maktablari va Uchtepa tumanidagi 229-o'rta umum ta'lim maktablarining o'zbek va rus tilida ta'lim olayotgan 8-sinf o'smir o'g'il va qizbolalari bilan tajriba ishlari olib borildi. "Muomala" psixologik trening mashg'ulotlarini o'tkazishda O'zbekistonning iqlim sharoitiga moslashtirilgan psixologik mashg'ulot va mashqlardan foydalanildi.

"Tanishish", "Individuallik", "Men kimman?", "Bir-birimizni ta'riflaymiz", "Erkalab aytiladigan ism", "Mendagi kuchli xususiyatlar", "Avtoportret", "Salom individuallik", "Kechagi kun haqida suhbat", "Psixologik portret", "Karusel", "Kimgadir kerak bo'lgin", "SHior", "Intervyu", "O'zingni mikroskop ostiga qo'y", "Emigratsiya" mashg'ulotlari va "Salomlashish", "Ko'zgu", "Buriq", "Atomlar", "Juft-juft bo'lib (polga) erga bir vaqtda qo'l panjalari bilan tashlash", "O'z juftingi top", "Hozir siz, ich-ichingizdan nimani his qilayapsiz", "Telefon", "Mashinka",

“Hozir kimda nima o'zgardi?”, “Tug'ilgan kunga sovg'a”, “Siz o'z ta'siringizni o'tkaza olasiz”, “SHirinsuxanlik”, “Razvedkachi”, “So'nggi uchrashuv” kabi.

An'anaga ko'ra, umumta'lim maktablarida o'quv yilining birinchi kuni “Mustaqillik darsi” bilan boshlanadi. Ushbu dars o'quvchilar qalbida iymon-e'tiqod hissini uyg'otish, ona-Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlash, komil inson g'oyasini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda mustaqillik saboqlarining maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun alohida tayyorgarlik ko'rib, darsni namunali, sermazmun, qiziqarli va bayramona tarzda tashkil etish har bir ustozu murabbiydan katta mas'uliyat talab etadi. Bu borada o'qituvchilarga yordam tariqasida RTM tomonidan Mustaqillik darslarini o'tish bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlandi. Darsda o'qituvchi davlatimiz rahbari Islom Karimov rahnamoligida ishlab chiqilgan dasturlar, rejalar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o'zlikni anglash, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni tiklash, boyitish, donishmand va fidoyi ajdodlarimiz ruhiga hurmat, ehtirom ko'rsatish, ma'naviy yangilanish timsollari bo'lgan muhtasham obidalar va qadamjolarining barpo etilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asos solinishi kabi qator ijobiy ishlar amalga oshirilganligi haqida keng ma'lumotlar beradi. Bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida tushunchalar beriladi. Darsni o'tishda mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning tarixi, buguni, kelajagi, davlatimizning ichki va tashqi siyosatiga oid hayotiy misollardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, pedagogika va psixologiya fanida shakllantiruvchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Shakllantiruvchi metodlar-ning samaradorligi shundaki, bola ruhiyatining rivojlanishini, ruhiy hodisalarning mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanmasdan, balki eksperiment natijasida ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutiladi.

Diagnostik metodlar shaxs yoki jamoaning ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda miqdoriy va sifat jihatdan aniq tasnif-lashga imkoniyat yaratganligi uchun psixologiya fanining hamma sohasida keng qo'llanilmoqda. Asosan bular testlardir. «Test» ingliz tilidan olingan bo'lib, sinov, tajriba degan ma'noni

bildiradi. Hozirgi amaliyotda bir necha mingdan oshiq testlar mavjud bo'lib, afsuski, ularning ko'p qismi milliy xususiyatlar e'tiborga olinib o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Chet el, asosan g'arb psixologiyasida testlar bi-lan ishlash keng ommalashgandir. Testlar yordamida bolalarning aqliy rivojlanish darajasi (intellektual koeffitsienti), iqtidorlilik dara-jasi, ruhiy holati, shaxs xususiyatlari, o'ziga va boshqalarga bahosi, kasb qiziqishlari va kasbga yaroqliligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ko'pgina metodikalarni tiflopsixologi-yada, ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni psixologik tekshirishda qo'llashning murakkab tomoni shundaki, o'quvchilar anketa va test savollarini o'zlari o'qishlari shart. Savollarni o'qib berish test nati-jalariga salbiy ta'sir etmaydimi, degan fikr mavjud.

Hozirgi kunda, ya'ni jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy demokratik rivojlanish yuz berayotgan bir vaqtda respublikamizning ravnaqiii ko'zlash maqsadida asosiy e'tiborni so'lom va nogiron yoshlarning aqliy, ahloqiy, nutqiy barkamolligiga barcha e'tiborni qaratishimiz lozim.

Ota-onaning erta yoki qarindoshlik nikohlarini, alkogolizm, giyohvandlik oqibatida bolalari nogiron bo'lgan taqdirda bolalaridan voz kechuvchi oilalar bilan ishlash tizimini ishlab chiqish.

Tibbiyot va maxsus muassasalari, oila, maxalla hamkorligani kuchaytirish va ta'lim tarbiya samaralishi shakil va metodlarvdan foydalanish va xayotga joriy etish.

Nogiron bolalarga ega bo'lgan oilalarning faoliyatlarini takomillashtirish, moddiy qo'llab quvvatlashni dasturini ishlab chiqish va xayriya tadbirlari o'tkazish.

Ota-onalar nogiron bolalarini mehribonlik uylariga tashlab keggan nogiron bolalarni qo'llab-kuvvatlash olishlari tizimini ishlab chiqish.

Nogiron bolalarni pedagogik - korreksion, ijtimoiy, tibbiy rehabilitatsiya qilish dasturida ko'rsatilgan vazifalar bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

Nogironlikni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targibot ishlarini olib borish.

Oilada nogiron tarbiyalashda "Sog'lomlashtirishni", shaklantirish, "Oilalarda

sogʻlom muhitni saqlash"ga tayyorlash, "Sogʻlom turmish tarzi" tushunchasini singdirish, "Nogiron farzandni hayotga tayyorlash, moslashtirish", "Nogaron farzandni tarbiyalashda ota — onalarning ma'suliyati"ni kuchaytirish kabi masalalarning hal etilishiga pedagogik nuqtai nazardan yondashish.

Sharq mutaffakirlarining oila kurish va oilada bola tarbiyasi yuzasidagi qarashlarini bilar ekanmiz, ularning koʻpgina asarlari yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalash xususiga bapgʻishlanganligining guvohi boʻlamiz.

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Imom at Termiziy, al Buxoriy, Abduraxmon ibn Jomiy, A.Navoiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarida bola tarbiyasiga uning inson hayoti faoliyatidagi ahamiyati erkin misollarda oʻz ifodasini topgan.

Zero, bu asarlardagi ta'limotlar oilada nogiron bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda, hayotga moslashtirishda amal sifatida xizmat kiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda sharq mutafakkirlarining asarlari asosida ota - onalar uchun qator ilmiy pedagogik tavsiyalar tayyorlash lozim deb oʻylaymiz. Jumladan:

- ota - onalar uchun nogiron farzandni tarbiyalash boʻyicha metodik ishlarini yaratish va chop ettirshp;

- rivojlanishida kamchiligi boʻlgan shaxslarni oʻqitish va tarbiyalash sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil etish;

- oila hamkorlikda jismoniy ruxiy jihatdan nuqsonlari bor bolalar va oʻsmirlar ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, ularni umumiy, oʻrta oliy va maxsus ma'lumot olishlariga yordam berish;

- oilada nogiron bolalar va oʻsmirlarni rivojlantiruvchi ta'lim berish, tarbiyalash, davolash va korreksion rehabilitatsiya qilish masalalari boʻyicha maslaxatlar, metodik yordam koʻrsatish va ular uchun oʻquv - metodik adabiyotlar tayyorlash;

- nogiron bolani tarbiyalash, kamol toptirish, murakkab muammolardan biri boʻlib, ota - onalardan, oila a'zolaridan yuksak diqqat e'tiborni, gamxoʻrlikni ishonchli bilim va xushmuomalalikni talab etadi. Bundan tashqari bolaning har xil yoshdagi jismoniy va ruxiy rivojlanishni normada va noanomol rivojlanish

tug'risida fiziologik qonuniyatlar haqida mukammal bilimga ega bo'lishlari lozim. Nogiron farzandlari bor ota-onalar tibbiy xodimlar bilan bir qatorda defektolog o'qituvchilar bilan uzviy hamkorlikda bolani tarbiyalash va hayotga moslashtirish yo'llarini izlashlari zarur.

Bunday ota-onalarga tibbiy - psixologik - pedagogik jamoalar genetik kabinetlari, axborot vositalari, ota - ona universitetlari doimiy yordam ko'rsatib turishlari maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda bolalikdan nogironlar masalasi ramxo'rlik qilishni, ularni hayotga moslashtirish ishlarini tashkil etish umumjaxon tajribalariga asoslanadi va quyidagi masalalarini hal etishga va amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

Birinchidan, O'zbekistonda maxsus ta'lim sistemasi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, sivilazatsiya yutuqlaridpp foydalanilgan holda rivojlanib borishni talab etadi. Ommaviy va maxsus maktab va maktabgacha muassaslarimi orlsidagi to'siqlarni yo'qotish, integratsion ta'limni tadbqiq etish yangi tarzda ta'limni tashkil etish.

Ikkinchidan, har bir oilada, mpqlllp xududida istiqomat qiluvchi nogron bolani ilk bor pipqlash, o'rganish, saralash va bank axborotini yaratish.

Uchinchidan, nogironlikni oldini olish maqsadida nogaron bola turilgan oilaga yordam berish maqsadida tibbiy - genetik konsultativ markazlarni tashkil etish.

To'rtinchidan, yoshlar orasida yangi turmush qurayotgan oilalarga axborot vositalari orqali tashviqot qilish orqali nogironlik haqida tushuncha hamda uni oldini olish yuzasidan tibbiy va defektologik ma'lumotlar berish.

Beshinchidan, oilagi ruxiy va jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor bolalarni aniqlash, ularni ilmiy jizatdan o'rganish ishlarini takomillashtirish.

Oltinchidan, nogiron bolalari bor oilalar extiyojlarni talablarni ommaviy muxitni emotsional omillarini nogiron bolalarning ota — ona va aka-ukalarini o'zaro munosabatlarini ilmiy jizatdan o'rganish, tavsiyanomalar ishlab chiqish maqsadga molik.

Nogiron bolalarni tarbiyalash, o'kitish xamda reabilitatsiya qilish borasida

oila va jamoatchilik xamkorligidagi ishlar o'sib kelayotgan yosh avlodning bir qismi nogiron avlodning ijtimoiy O'zbekistonning ravnak topishiga xissasini qo'shishiga imkon yaratib beradi.

## **1.2. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning amaldagi ahvoli .**

Kichik yoshdagi kar bolalarda o'yin va nutqiy faoliyatning chegaralanganligi sababli ular o'rtoqlarini tushunmaydilar. Le-kin o'zaro muhabbatni, tushunishni kutadilar, uydan ajralgan-lari uchun ulardan himoya, qayg'urishni kutadilar. Bog'chaga kelgan kunlarida bolalar o'rtog'iga yordamga kelmaydilar, bir-biriga muhabbat, mehr bilan qaramaydilar. Yil boshida kichik guruhdagi bolalarda uyda tarbiyalanish asosida shakllangan ego-istik yo'nalish kuzatiladi (yangi yaxshi o'yinchoqni tortib olish, o'yinchog'irif o'rtog'iga bermaslik). o'rta va yuqori guruhlarda o'rloqlik va axloqiy tuyg'ularning rivojlanishida ijobiy ta'sirlar ko'rinadi. Sujetli-rolli o'yin, bayram, tug'ilgan kunlar o'tkazish ijobiy emotsional tuyg'uni shakllantirishga sabab bo'ladi. Bu o'rtog'ini qayg'urishlarini tushunishi, uning emotsiyalari, qiyin-chiliklari ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

V. Petshak tadqiqotlari natijalariga ko'ra, IV sinf o'quvchilari xursandchilik, shodlik, g'am, hayrat, qo'rquv, nafrat tuyg'ulari ifodalangan personajlarning emotsional holatini qisman tushunganlar. Bu bilimlarni bolalar asta-sekin, o'rta va yuqori sinflardagi ta'lim davomida egallaydilar. Analogik bilimni eshituvchi bolalar kichik yosh davrida egallaydilar.

Emotsiyalarni kech anglash bir qator noxsh oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, adabiy qahramonlarni, ularning faoli-yatlari, qiliqlari, oqibat va sababini tushunish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning shaxs sifatleri shakllanishi va ijtimoiy-emotsional sferasi tarkib topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyatida uning atrofdagi-larga faol munosabati namoyon bo'ladi. Faoliyat ixtiyoriy harakat-lar vositasida amalga oshuvchi holatlardan tarkib topadi. Inson o'z harakatlarini sezgi va idrok asosida nazorat qiladi. Shu sababli normal rivojlanuvchi bolada harakat nazoratida katta rol eshitish-ga beriladi. Tovushlar, ovozlarni qabul qilib bola harakatlarini bir ritmliligi, yaxlitligini nazorat qiladi. Bunday jarayonda eshituv va ko'ruv sezgisidan tashqari kinestetik sezgi-idrok muhim ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola o'z faoliyati, harakatlari eshituv nazorati

yo'qligi sababli aniq bo'lmaydi. Kar bola hayotida eshi-tuvchi ma'lum darajada bosuvchi taktil-vibratsion sezgi rivojlanib boradi. Bola vibratsiyalarga ko'ra atrof-olam haqidagi dunyo ha-qida bilimga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, taktil-vibratsion nazoratga ko'ruv nazorat qo'shiladi. Bu kar bolaga o'z kinestetik sezgilarini to'liq anglashga yordam beradi. Kar o'quvchilar ol-diga qo'yilgan maqsad va uni amalga oshirish yo'llarini moslash-tirishga qiynaladilar. Ular maqsadga yetishish sharoit va talablari mos tahlil qilishga qiynaladilar, faoliyatni amalga oshirish rejasiga ega bo'lmaydilar. To'siq va qiyinchilikka duch kelganda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ularni bartaraf etishga harakat qilmaydilar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ayrim faoliyat turlarini faqat o'qituvchi ko'rsatmasi yoki taqlid asosida amalga oshiradilar, chun-ki ular mustaqil harakatlarning ketitia-ketligini aniqlay olmaydi-lar. Xususan, amaliy ishlarda master faoliyatini ku/alib, kar bola uning harakatlarini ketma-ketlikda bajara olmaydi. Faoliyatning to'liq maqsadga qaratilnaganligi tanqidiy yondaslnivning yuzaga kelmasligiga olib keladi. Kar o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida ularda ko'ruv, taktil-vibratsion va kinestetik nazoratni shakllanti-rish talab etiladi. Bunday nazorat jismoniy tarbiya, mehnat va rasm darslarida shakllantiriladi. Kar o'quvchilar faoliyatini nazorat ctib, o'qituvchi bolalarga o'z faoliyatini anglashni, ishning har bosqichida maqsad va usullarni moslashtirishni o'rgatadi. Kar o'quvchilarni o'z faoliyatini rejalashtirish va o'zini nazorat etishga o'rgatish muhim-dir.<sup>5</sup>

Kar bolaning predmet faoliyati. Inson faoliyatining asosiy turi mehnatdir. Mehnat faoliyatning individual rivojlanishida boshqa faoliyat turlari tasniflanadi: predmetli, o'yin va o'quv faoliyati. Ish-dan uch yilgacha bolaning asosiy faoliyati predmet faoliyat sana-ladi. Hayotining 1-yilida bola qo'l harakatlarini anglaydi, pred-metlar bilan takroriy harakat bajaradi. Eshituvchi bolaning ruhiy jarayoolarini shakllantirish, uning shaxsini rivojlantirish predmetli faoliyat asosida amalga

---

<sup>5</sup> Goziev E. Psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.

Karimova V. Psixologiya. Toshkent 2000y.

oshadi, bunda nutqni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Predmetlar bilan harakat kattalar boshchiligida, ular nazorati bilan amalga oshadi. Bu dastlabki kichik miqdordagi harakatlar bo'ladi.

Sujetli-rolli o'yin jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bola-lar o'zlariga berilgan rollar asosida katta odamlar hayoti, ular-ning faoliyati va o'zaro munosabatini ifodalaydi. o'yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularning bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi (hayvonlar, kitob, raeh-nat faoliyatiga qiziqish). o'yin jarayonida bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydilar. Sujetli-rolli o'yin jarayonida bola Dunyo va ijtimoiy tajribani anglaydi. Sujetli-rolli o'yin bolaning o'rganish vositasi sanaladi, xususan uyida bola o'z xususiyatlari imkoniyatini ochib beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola singari barcha o'yin turlarini sevib o'ynaydi. Sujetli-rolli o'yinlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va sog'lom bolalarda o'xshash xususiyatlarga ega bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sujetli-rolli o'yinda kattalar faoliyati va o'zaro munosabati aks etadi. Bu jarayonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'ynaydi. Dunyoqarashni, dunyoni idrok etishni nutqiy muloqot chegara-langanligi sababli o'ziga xos bo'lgani uchun ularning sujetli-rolli o'yin faoliyati eshituvchi bolalarning o'yin faoliyatidan farq qila-di. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'yinlari eshituvchi bola-larga nisbatan predmet protsessual darajada to'xtab turadi hamda juda sodda ko'rinishda bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bo-lalar o'yinida haddan ortiq detalizatsiya, predmet harakatlarini pedaktimi kuzatiladi.

Ta'lim o'quvchilarni mustaqil ta'limga tayyorlaydi. Maktab yoshida kar o'quvchilar xilma-xil faoliyat turiga ega bo'ladilar, ular nav-batchilik qiladilar, to'garaklarga qatnashadilar, bog'larda ishlaydi-lar. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, kar bola yuqori maktab yoshigacha yagona tajriba, bilim va ommaviy malaka shakllanishi-da katta qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Tafakkur qanchalik to'liq rivojlangan bo'lsa, so'z raa'nosi shunchalik to'liq bo'ladi, ya'ni tafakkur jarayonlari, so'z ma'nosi ortida turib, shaxsiy fikrlash darajasida kechadigan analiz va sintez bilan bog'langan.

Nutq bilan tafakkurning birligini I.P. Pavlovning ikkinchi signal sistemasi to'g'risidagi ta'limoti ham isbotlab beradi, ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasi bilan bir-biriga ta'sir qilgan holda nutqning ham, tafakkurning ham nerv-fiziologik negizini tashkil qiladi.

Nutq nuqsoniga ega guruh bolalarida hissiy-iroda sohalarida hara kamchiliklar kuzatiladi. Ayrim bolalarda hissiy-iroda sohasi-dagi kamchiliklar ruhiyatini yemirishi, tormozlanganlik, qo'rquv, kayfiyatining tez-tez o'zgarishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa, ayrim bolalarda qo'zg'aluvchanlikning ortishi, asa-biylashganlik, yig'loqilik, atrofdagi odamlarga va muhitga nisbatan norozilik xislatlarida aks etishiga sabab bo'lsa, yana boshqa bolalar-da atrofdagi voqea-hodisalarga va odamlarga befarqlik, irodasizlik kabi xislatlar keltirib chiqaradi.

### **O'qish va yozuv kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari.**

Ko'pchilik tadqiqot ishlari o'qish va yozuv kamchiliklarini xulq-atvor me'yorlari bilan bog'liqligini alohida qayd etadi. Bu bog'liqlik bola maktabga borgandan so'ng, ya'ni o'zi bajara olmaydigan vazi-falarga duch kelgandan so'ng ko'zga tashlanadi.

Ko'pchilik o'qituvchilar o'qish va yozuv kamchiliklariga ega bolalarning ish qobiliyatining sustligi, diqqatining tarqoqligi, darsda o'tira olmasligidan shikoyat qiladilar.

Bir necha farzandlari bor ota-onalar o'qish va yozuv kamchiliklariga ega farzandlarini boshqalari bilan solishtirib, ularga nisbatan qo'pol munosabatlarda bo'ladilar, bu esa bolalarning xarakteriga, shaxs sifatlarining shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ko'p ota-onalar farzandlarining bunday kamchiliklarida o'qituvchilarni ayblaydilar. O'qituvchilar esa o'z navbatida bunday kamchiliklarni ota-onalarning bolalar o'qishlariga nisbatan befarqligi, deb qaraydilar. Natijada bola sekin-asta maktab talablarini bajarmaydi, darslarni qoldiradi va unda salbiy xulq-atvor shakllanadi. Agar o'qish va yozuv kamchiliklariga ega bolalar maktabni tashlab ketsalar, ular o'z xohishlari bilan

hech qachon kitob muto-laa qilmaydilar va bu holat salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Agar o'quvchi kitob kam o'qisa, uning rivojlanishi, lug'atining boyishi va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari cheklanadi.<sup>6</sup>

O'qish va yozuv kamchiliklariga ega bolalarning ichki nutqi sust rivojlanadi, bu esa tafakkurning zaiflashuviga olib keladi.

Ilmiy tadqiqot metodlari tadqiqotchining uz oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga karab quyidagi turlarga bulinadi:

1. Noeksperimental metoddarga ko'zatu, surov (anketa) suxbat, uquvchining faoliyat mahsulotlarini taxlil qilish kiradi.

1.1.Ko'zatu, ma'lum bir reja va tizim asosida utkazilib, tadqiqotichidan ko'zatilayotgan ruxiy jarayonga (xrdisaga) odilona (ob'ektiv) yondoshish talab qilinadi. Tadqiqotchi o'zi istagan narsani «kurmasligi», balki xaqiqiy ma'lumotlarni, xatti-xarakatlarni qayd qilishi zarur.

Ko'zatuving qushilgan xolda va qushilmagan xolda ko'zatuish usullari mavjud bo'lib ilmiy adabiyotlarda ko'zatu turlari bayon etilg'an. Keyingi vaqtlarda bolalarning uzaro munosabatlarini, xulq-atvorini va boishalarni ko'zatuishda Beylis metodidan keng kullanilmokda.

1.2.Surov (anketa). Surovdagi savollar ochiv^ va yopiq shaqlda berilishi mumkin. Ochiq savollarga javob o'kuvchining uz istagicha berilishi mumkin. YOpiq shaqldagi surovlarda javob tayyor xolda (xa, yo'q, ba'zan, bilmayman va boshqalar) berilgan bo'ladi.

1.3.Suxbat. Bu metod tekshiruvchi uchun eng qulay uslub bo'lishi bilan birga, undan katta moxirlik ham talab qilinadi. Suxbat oldindan to'zilgan savollar yordamida utkaziladi. Bolalarning xarakter xususiyatlari, xulq-atvor va uning motivlari, atrofdagilarga va o'ziga munosabati, baxosi va boshka juda kup ma'lumotlar bilan birga tarjimai xolga oid ma'lumotlarni xam tuplash mumkin. Bolalar bilan utkaziladigan suxbatning asosiy shartlaridan biri, muloqotni u bolaga yok^imli yoki neytral savollardan boshlash zarurdir. Bunday

---

<sup>6</sup> Rogov E.I. Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa. M. Vlado, 1999.

boshlangan suxbat uzaro aloqani va munosabatni yaxshilaydi. Savollar bolaning yoshiga, individual va milliy xususiyatlariga karab to'ziladi. Bolalarning tez charchab krlishini xisobga olib 10-20 ba'zan 30-40 minutdan oshmasligi keraq Suxbatni tinch, yakka xolda utkazish uzaro erkin muloqotni ta'minlaydi. Sudbat jarayonida axloqiy-etik shartlarga qat'iy rioya qilinadi. Masalan, uquvchining matematika uqituvchisiga munosabatini bilish uchun «Sen matematika uqituvchisini yoktirasanmi?» deb surash birinchidan, dobsizlik bo'ladi. ikkinchidan, uquvchilar bunday savolga odatda to'g'ri javob bermasligi mumkin.

1.4.Bolalarning faoliyat maxsulotlarining taxdiliga bagishlangan. Rasmlar, xar xil maxsulotlardan (plastilin, loy va bonshalardan) yasalgan narsalar, bolalar yasagan uyinchoklari, eng muximi o'kuvchilarning xar xil fanlardan yozgan yozma ishlari, nazorat ishlarining taxlili kiradi. Noeksperimental metodlar bilan ko'r va zaif ko'ruvchilar orasida ilmiy-tadqiqot ishlarini utkazish kulaydir.

2.Eksperimental metodlar. Eksperimental metodlar yordamida xar xil ruxiy jarayon, xodisalarning rivojlanishini o'zimiz istagan vaqtimixzda takrorlashimiz, unga faol ravishda aralashishimiz, uzgartirishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tabiiy va laboratoriya eksperimenta xillariga ta'rif berilgan. Keyingi vaqtlarda eksperimentni modellashdan keng foydalanilmokda. Eksperiment u yoki bu psixologik xrdisani, vaziyatni sun'iy yuzaga keltiriladi va shu vaziyatda o'kuvchi (o'kuvchilarning) o'zini tutishi, munosabatlari, javob reaksiyasi ko'zatiladi.

SHuningdeq pedagogika va psixologiya fanida shaqllantiruvchi metodlardan xam keng foydalaniladi. SHAqllantiruvchi metollarning samaradorligi shundaki, bola ruxiyatining rivojlanishini, ruxiy xrdisalarning moxiyatini o'rganish bilan shug'ullanmasdan, balki eksperiment natijasida ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutiladi. 3. Diagnostik metodlar shaxs yoki jamoaning ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda mikdoriy va sifat jixatdan aniq tasniflashga imkoniyat yaratganligi uchun psixologiya fanining xamma soxasida keng kullanilmovda. Asosan bular testlardir. «Test» ingliz tilidan olingan bo'lib sinov, tajriba degan ma'noni bildiradi. Xozirgi amaliyotda bir necha mingdan oshsh testlar mavjud bo'lib afsuski, ularning kup qismi uzbek va rus tiliga tarjima qilinmagan. CHet el,

asosan garb psixologiyasida testlar bilan ishlash keng ommalashgandir. Testlar yordamida bolalarning avushy rivojlanish darajasi (intellektual koeffisienti), iktidorlik darajasi, ruxiy xolati, shaxs xususiyatlari, o'ziga va bopshalarga baxosi, kasb qiziqishlari va kasbga yarokdiligi aniqlanadi.

## A Q L I Y H U J U M U S U L I

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar echish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalarni yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilonaG`samaraliG`maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va echishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida fikrlashdan ozod bo'lish va ijodiy topshiriqni echishda birlamchi yo'l fikrlarini engib o'tishni tarbiyalaydi.

An'anaviy ta'limda vazifani echish vaqtida ko'pgina ta'lim oluvchilar o'z g'oyalarni aytishga botina olmaydilar.

Aqliy hujum qoidasi:

Hech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma, hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaga chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!


Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni "xo'sh urishiga" ruxsat ber!

## Baholash tizimi va kichik guruhlarda eng yaxshi g'oyalarni tanlash



Interfaol o'qitishning bir usuli everistik suhbat bo'lib, lotincha – “to'playman, izlayman” ma'nolarini anglatadi. Bu suhbat usuli bo'lib qadimgi grekchq ko'rinishi Suqrot suhbatini deb nomlangan o'qitish tizimiga asoslangan. Shu yo'l bilan mohirona savollar tuzish va o'quvchini qo'yilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob topishga yo'naltirish kerak. Bu o'qitish usulini Suqrotnikidan farqi uning keng doirada jonliligidir. Lekin uning so'zsiz o'hshashlik tomonlari ham mavjud. O'z ta'schiriga ko'ra olinayotgan funktsiyasi bevosita ularni faol o'ylash orqali o'quvchilarni mohirona savol berishga qaratilganligidir. O'z yo'nalishining psixolog tabiyatiga ko'ra evrestik suhbat bu jdamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoni echimini izlovchi sifatidagi suhbatdir. Shuning uchun pedagogikada bu usul muammoli o'qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb nomlanuvchi suhbatdan everestik suhbat psixologik tomondan hech ham farq qilmaydi. Pedagogika ular orasida shaxsiy miqdoriy chegara o'tqazadi. Agar

everestik suhbat faqat qaysidir mavzuni bitta elementiga tegishli bo'lsa, muammoli izlanishda bo'lsa – muammoli vaziyatlar ko'p. Biroq bunday farqlanish tanqiti ko'tarmaydi, amaliyotda suhbatni haqiqiysiga aylantirsa, mashg'ulotlarda “faqat bitta” va “ko'p” muammolar orasidagi bu ko'rinmas farqni sezish mumkin emas: o'qituvchi va auditoriya orasidagi suhbat ko'p savolli suhbat orasidagi suhbat ko'p suhbatga aylanadi va mavzuga tegishli suhbat bilinmasdan bahsga o'tadi. Lekni endi bu o'qitishning boshqa usulidir. Bunga keyinroq to'xtalamiz. Gap shundaki, suhbatda fikrlab izlanish jamoaviy izlanishga aylanadi va muammoning echimini izlashda fikrlar almashinuvi turli variantlar orasidagi xulosalar hamkorlik va hamfikrlilik bir-birin faollashtiradi.

### **Diqqatni rivojlantiruvchi usullar.**

1-mashq: “Kim tez?”

1) O'quvchidan istalgan matndagi ko'p uchiraydigan harf masalan, “O” va “E” harflarini iloji boricha tezlik va aniqlik bilan o'chirish talab qilinadi. Topshiriqni bajarilishi uning bajarish vaqti va qo'yilgan xatolar miqdori bilan baholanadi: mazkur ko'rsatkichlar qanchalik kam bo'lsa topshiriq shunchalik soz bajarilgan bo'ladi. Shu bilan birga o'yin davomida muvaffaqiyatni rag'batlantirib borish va o'yinga qiziqishini oshirish kerak.

2) Diqqatni bog'lash va taqsimlashni rivojlantirish uchun topshiriqning shartini biroz o'zgartirish mumkin bitta harfni (masalan “O” ni) vertikal ko'rinishda, bittasini esa (“E”)gorizontal ko'rinishda ustidan chizib chiqiladi. Yoki signal bo'yicha harflarni navbat bilan ustidan chizish talab qilinadi. Vaqt o'tishi bilan topshiriqni yanada murakkablashtirish mumkin uchta harfni tanlab birini o'chirib tashlash ikkinchisini tagiga chizish uchinchisini aylanaga olish talab qilinadi.

Bu mashqlardan maqsad-diqqatning bir vaqtning o'zida bir nechta ob'ektga taqsimlashni rivojlantirishdir. Topshiriqni bajarish yonga qarab o'zgaradi, kichik maktab yoshidagilar uchun -15 daqiqa o'smirlar uchun 30-daqiqa.

2- mashq: “Kuzatuvchanlik”.

Bolalar xar kuni yuz martalab ko'radigan maktab hovlisini mufassal ta'riflab berishi kerak bo'ladi. Bunday ta'rifni kichik maktab yoshidagi bir

o'quvchi aytadi. Sinfdoshlar esa aytilmay qolgan detallarni to'ldiradilar. O'smirlar esa o'z ta'riflarini yozma ravishda qilishi mumkin, keyinchalik esa real voqelik bilan qiyoslashadi. Bu o'yinda diqqat bilan ko'rish xotirasi o'rtasidagi aloqa rivojlantiriladi.

### 3-mashq "Korrektura".

O'yinni o'tkazuvchi oq qog'ozga bir nechta gaplar yozadi. Bu gaplarda ba'zi hariflari tushirilib qoldirilgan va almashtirilgan bo'ladi. O'quvchi bir marta mazkur gaplarni o'qiydi va rangli qalam bilan qolgan hatolarni ham to'g'rilaydi. Ehtimol o'yinni juftlikda musobaqa ko'rinishda o'tkazsa ham bo'ladi.

### 4- mashq: "Barmoqlar"

Qatnashchilar aylana qilib stullarda joylashib o'tirib olishadi. Tizzaga qo'yilgan qo'llarining barmoqlarini bir-biriga bog'langan holda o'tiriladi. Faqat bosh barmoqlar erkin qoladi. "Boshladik" degan buyruqdan so'ng bosh barmoqlarini birining orqasidan ikkinchisini bir xil tezlik bilan bir xil yo'nalishda, eng muhimi bir-biriga tekkizmasdan aylantiriladi. Diqqatni mana shu harakatga qaratish zarur. "To'xta" degan buyruq bilan mashqni to'xtatadi. Mashq 5-15 daqiqa davom etadi. Ba'zi qatnashchilar kutilmagan sezgilarni tuyushadi: barmoqlarni kattalashganini yoki begonalashganini, ularni harakatlari yo'nalishi o'zgarganligini, kimdir kuchli qo'zg'alishni yoki nohushlikni xis qiladi. Bular diqqat qaratilayotgan ob'ektning o'ziga xosligi sababli kuzatiladi.

### 5- mashq: "Chivin"

Bu mashq uchun 3x3 sm dan qilib o'nta bo'lakka bo'linib chizilgan doska hamda bir bo'lak plastilin talab qilinadi. Plastilin bu erda ko'rsatilgan chivin rolini bajaradi. Doska vertikal xolda qo'yiladi. O'yinni olib boruvchi qatnashchilarga tushuntiriladiki, "chivinning" bir katakdan ikkinchi katakka o'tishi buyruq ostida amalga oshiriladi. Bu buyruqni "chivin" to'liq bajarishi zarur. To'rtta mumkin bo'lgan buyruqlardan ("yuqoriga", "pastga", "o'nga", "chapga") chivin mazkur komandaga mos ravishda harakat qiladi. "Chivinning" ilk xolati o'yin maydonining markaziy katagi, buyruqlar qatnashchilar tomonidan navbat bilan beriladi. O'yinchilar chivinning tashqariga chiqib ketmasligiga yo'l qo'ymasligi

kerak.

Mana shularni tushuntirgandan so'ng o'yin boshlandi. U hayoliy maydonda amalga oshiriladi, uni xar bir qatnashchi tasavvur qila bilmog'i zarur. Agar kimdir o'yinni ipini yo'qotib qo'ysa yoki "chivin" madondan chiqib ketayotganini "ko'rsa" "to'xta" buyrug'i beriladi va "chivin" markaziy katakka olib kelinib, o'yin boshidan boshlanadi. "Chivin" o'yinchilardan domiy e'tiborni talab qiladi, biroq mashq yaxshilab o'zlashtirilib olingach uni murakkablashtirish mumkin.

#### 6- mashq: "Selektor"

Mashq uchun o'yinchilardan biri "qabul qilinuvchi" sifatida tanlab olinadi. "Uzatuvchilar" deb atalib qolgan guruhlarning xar biri xar xil sonlarni har xil yo'nalishlarda aytadi. "Qabul qiluvchi" esa qo'lida xassa ushlagancha jim turib tinglaydi. U navbat bilan har bir "Uzatuvchi"ga moslashishi zarur. U yoki bu "Uzatuvchi"ni tinglash o'ta qiyin bo'lib qolsa, u buyruq ishorasi bilan ularni qattiqroq gapirishga majbur qiladi, agar unga tinglash o'ta oson bo'lsa, tovushni pasaytirishi mumkin. "Qabul qiluvchi" ancha ishlagach, xassani boshqa qo'shnisiga uzatadi. O'zi "uzatuvchi" bo'ladi. O'yin davomida xassa butun aylana bo'ylab uzatilib chiqadi.

#### 7- mashq: "Yuqori diqqat"

Qatnashchilar 2 guruhga bo'linadi: "xalaqit beruvchilar" va "e'tibor beruvchilar"ga. "E'tibor beruvchilar" o'yinni olib boruvchi tomonidan zalga nisbatan perimetr bo'ylab joylashtiriladi va farqlanuvchi belgilar oladi (qo'lga bog'lanadigan lattalar galstuklar va x.k. ) Har bir qatnashchiga instruktsiya beriladi: sizni vazifangiz - xuddi aktyorga o'xshab tasvirlash kerak, o'ynash lozim. Biror ish bilan qattiq mashg'ul bo'lgan va xech narsani sezmayotgan odamning roliga kirishi lozim. Siz bu rolga kirishingiz darkor. Sizga bu rolni ijro etish oson bo'lishligi uchun siz o'zingizcha o'zingizni xuddi kinofilm ko'rayotganday yoki xavfli sayohatga qatnashayotganday tasavvur qiling. O'z rolingizni tartib bilan bajaring. "To'xta" buyrug'i bilan mashqni tugatdingiz, sizdan so'rashadilar. Siz esa o'zgalarni siz xaqiqatdan ham o'z o'ylaringizga g'arq bo'lib o'tirganingizni, ko'rganingizni uqdiring, tasdiqlang. Tushunarlimi? "Xalaqit beruvchilar" mashq

paytida topshiriq oladilar. Tayyormisiz? Boshladik! Mashq 5-15 daqiqa davom etadi. Bu vaqt ichida boshlovchi “xalaqit ” beruvchilar bilan provokazittsiya harakatlarini tashkillashtiradi ular shiorlar, chaqiriqlar bilan to’s-to’polon ko’tarishadi, sahna ko’rinishi uyushtiriladi, darsni tugaganligini ijro etishadi va zaldan chiqib ketadi, hayvonlarni tasvirlashadilar va h.k. Shu bilan birgalikda boshlovchi “xalaqit beruvchilar” o’ta samarali harakat qilmasliklariga intiladi. U “etibor beruvchilarga” teginmasliklarini so’raydi va muhim daqiqalarda “Xalaqit beruvchilar ” o’z rollarida qolishligiga yordam beradi. So’ngra “to’xta” degan buyruq bo’ladi va muxokama boshlanadi. Shu muxokamada kim nimalarga e’tiborini qaratganligi aytiladi.

### **Xotirani rivojlantiruvchi usullar**

1-mashq: “Qiyinini eslab qol”

O’qituvchi o’quvchilarga 25-30 soniyada 10 ta qiyin yoziladigan so’zlarni ko’rsatadi va yashiradi. So’ngra o’qituvchi aytib turadi, o’quvchilar qog’ozga o’sha so’zlarni yozadi. Ko’rish xotirasi eshitish xotirasiga yordam beradi. Hamma so’zni to’g’ri yozgan yutib chiqadi.

2-mashq “Adashgan hikoyachi”.

Qatnashchilar aylana qurib o’tirishadi. Boshlovchi suhbat mavzusini tanlaydi. Qatnashchilardan biri uni rivojlantiradi. So’ngra tasodifiy fikrlar ortidan borib, suhbatni boshqa tarafga buradi. U bir mavzudan boshqa mavzuga o’tadi va iloji boricha ko’proq chalkashtirishga harakat qiladi. So’ngra gapirayotgan imo bilan keyingi qatnashchiga so’z navbatini beradi. So’z xohlagan odamga uzatilishi mumkin. Buni hamma davomini kuzatadi. Kimga qaralgan bo’lsa u barcha fikriy chalkashtirishlarni teskari yo’nalishda davom ettirib, ilk mavzuga qaytib kelishi zarur. So’ngra o’zi ham “ilk” mavzuni chalkashtirishga harakat qiladi va x.k.

3-mashq: “Assotsiatsiyalar yugurishi”

Qatnashchilar aylana qurib o’tirishadi. Boshlovchi ikkita tasodifiy so’zni aytadi. Qatnashchilardan biri ovozini chiqarib birinchi va ikkinchi so’zlarni bog’laydigan obrazni aytadi. So’ng o’sha qatnashchiga o’z so’zini o’zidan chap tomonda o’tirgan qatnashchiga aytadi. U bu uchinchi so’zni boshlovchining

ikkinchi so'zi bilan bog'laydi va o'zining so'zini uchinchi qatnashchiga uzatadi. O'yin aylana bo'ylab davom etadi va xar bir aylana tugaganda boshlovchi sekundomer bo'yicha so'zni aylanib kelishiga ketgan vaqtni e'lon qiladi. Yaxshi tayyorlangan qatnashchilar bir nechta aylana bo'yicha harakat qilishi mumkin. Boshlovchi to'satdan o'yinni to'xtatishi va qatnashchilardan birortasidan barcha so'zlarni aytib berishini so'rashi mumkin. Agar qatnashchi faqat o'z so'zlarinigina eslab qolgan bo'lsa, demak u o'yinda qatnashmagan hisoblanadi.

#### 4-mashq: "Razvedkachi"

Qatnashchilardan biri "razvedkachi" bo'lib saylanadi. Boshlovchi: "Qotib qoldik" deydi va butun guruh qotib qoladi. Har kim o'zinning xolatini eslab qoladi. "Razvedkachi" esa ularni eslab qolishga harakat qiladi. Qatnashchilar holat va tashqi ko'rinishini diqqat bilan o'rgangach, "razvedkachi" ko'zini yumadi (yoki xonadan chiqadi), Bu vaqt ichida qatnashchilar o'z kiyimlari, holatlari, ko'rinishlarida o'zgarishlar yasaydi, so'ngra "razvedkachi" ko'zini ochib, barcha o'zgarishlarni aytib berishi kerak bo'ladi.<sup>8</sup>

Ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatiga ko'ra ta'limning quyidagicha metodlari ajratiladi:

1. Tushuntiruv ko'rsatmalilik metodi - bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi. O'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar tanishadilar.

Bu metod juda keng tarqalgan metodlarda biri bo'lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu - programmalashtirilgan ta'limdir.

2. Reproaktiv metodda o'quvchi faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3. Muammoli ta'lim metodi- o'qituvchini tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o'quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodning takomillashtirish yullaridan biri ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

---

<sup>8</sup> N.Boymurodov "Amaliy Psixologiya" Toshkent 2008y. (210b)

4. Qisman izlanish metodi -o'qituvchini nazorati ostida tashkil metod bo'lib, u -produktiv xarakterga ega, bunda o'quvchi ijod qiladi.

5. Tadqiqot metodi-o'qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u o'quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformatsiyasini talab etadi.

Ta'lim jarayoni tashkil etishning o'ziga xos metodlaridan biri ishchan o'yinlardir. Ishchan o'yinlar munosabatlar sistemasini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam berad

Eshitishida nuq-soni bo'lgan bolalar bir vatqning o'zida ham ko'rgazma material-larni idrok qilish, ham o'qituvchining labidan uqib olishi amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu toifa bolalarda I va II signal tizimlari orasida munosabatlar tez shakllanmaydi. Sinflar yuqorilashgan sari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bosh mi-yalaridagi qo'zg'alish markazlari izchillashib boradi. Asta-sekin bu holat normal bolalar xususiyatlariga yaqinlashib boradi. Bu ishlar surdopedagogning ishini birmuncha murakkablashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi, tarbiyachilar og'zaki ko'rsatmalar bilan bolalar diqqatini boshqara olmaydi. Bu toifa bolalar diqqa-tini ko'rish va tebranish qo'zg'atkichlari orqali boshqarib borish imkoniyati mavjud.<sup>7</sup>

Bu bolalar diqqatini to'plash, yig'ish, tarbiyalashda turli-tu-man ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Og'zaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan muloqot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan bo'ladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni o'stirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Shu narsa juda muhimki, gapirayotgan kishining lablariga butun diqqatni qaratish oson vaziyat, ish emas. «Labdan o'qish, — degan edi F.F. Rau, — bu nutq a'zolaridan chiqayotgan og'zaki nutqni ko'rish idrokidir». Bu narsa gapirishga oson. Ammo, uni bu yerda qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun boshdan kechirmoq kerak. Shu bois, bu toifa bolalar

---

<sup>7</sup> Nemov R. Prakticheskaya psixologiya. M., Vldos, 1998.

normal eshituvchi bolalardan ko'ra tezroq, ko'proq char-chaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengillashib, o'quv materiallarini egallashlari osonlashadi. Daktil nutqi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining dastlabki yillarida keng qo'llanilishi tavsiya etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini ushlab turishning uchinchi xususiyati, sharti sur-dopedagogning sinfdagi o'zini to'g'ri tutishidir. Surdopedagog quyidagi qoidalarga amal qilmog'i zarur. Butun sinfga yuzi bilan qaragan holda darsni olib borishi. Mumkin qadar sinfda bilim berganda yurmasligi, to'g'ri kelgan holda tushuntirmasligi lozim. Ko'rgazma qurollar namoyish qila turib, bir vaqtning o'zida uni tushuntirishga harakat qilmasligi kerak. Kar va zaif eshituvchi bolalarning diqqatlarini to'plashning to'rtinchi sharti shuki, darsda mumkin qadar ko'proq ko'rgazma qurollardan foydalanish lozim. Beshinchi sharti shundan iboratki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati ovozli qo'zg'atkichlarga bog'liq emas. Eshitish qo-biliyati buzilgan bolalar diqqatini to'plash, bir maromda ma'lum muddat ushlab turishning asosiy omillaridan biri mimikalardir. Bu narsa juda katta ta'sirga, jalb etuvchi kuchga ega. Kar va zaif eshituvchi bolalarda diqqat maxsus ta'lim-tarbiyaning asosiy talblaridan hisoblanadi.

### **1.3. O'quvchilarga korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi**

Interfaol usuli nafaqat ta'limda balki tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija keltiradi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda o'qituvchi muhokamaga ta'sir qilganda nafaqat fikr bildiradi balki muammoga o'zini shaxsiy munosabatini axloqiy mavqei va dunyoqarashini bildiradi. O'quvchilar bahsida o'qituvchini ishtiroki turlicha bo'lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham o'zini fikrini o'tqazmasligi kerak. Yaxshisi bahsni boshqarishda yahshlab hisoblab chiqilgan usul sermhsul fikrlashni echimini topishda ijodiy izlanuvchanlikni talab etuvchi yo'lni muammoli savol qo'yish orqali boshqarish lozim. O'qituvchi o'z nuqtai nazaridan chiqarishda fikr bildiradi. Faqat o'quvchilar fikridan xulosa chiqarish bilan isbotlash va hato fikrlarni rad etish kerak.<sup>8</sup>

Interfaol o'qitish usullari orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiriladi. O'quv jarayonida ushbu yuqorida nomlari zikr etilgan yangi uslublarni ta'lim jarayonida o'qitishda balki o'quvchilarga umum kasbiy darslarni o'qitishda xam yuqori samaralarni beradi. Chunki o'quvchilarga yangi interfaol usullarda dars berish orqali ularda fanga bulgan qiziqish va bilim malaka ko'nikmalarni shakllantirish da mustaxkam asos buladi. O'qitishning interfaol usullari ta'lim jarayonida guruxiy tenglikni xamkorlikdagi faolilikni ta'lab etadi. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish ijtimoiy darslarni o'qitishda yordam beruvchi va qo'l keluvchi usullardir. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarga yuqori samara berish bilan birga ularni psixologik bilimlarni yanada chuqurroq o'rganadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini tekshirishda bo-lalarning yosh hamda nutqi rivqjlanganlik holatiga muvofiq meto-dikalar tanlab olinadi. Maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning turg'un diqqatini tekshirisfe-da Landolt namunalaridan (shaklli, raqamli, harfli jadval) foyda-laniladi.

---

<sup>8</sup> Nemov R. Prakticheskaya psixologiya. M., Vlado, 1998.

## Aqliy hujum metodi

Aqliy hujum metodi talabalarning o'rtaga tashlangan masalaga faol munosabat bildirishlarini ta'minlashga imkon yaratadigan, foydalanishga qulay metodlardan biridir.

Bu metod qo'llanilayotgan paytda talabalar o'zlarini erkin his qiladilar va shaxsiy fazilatlarini namoyon qiladilar. Bunda avval munozara uchun tanlangan mavzu umumiy tarzda qisqacha izohlanadi va talabalar hukmiga tashlanadi. Talabalar kichik guruhlariga ajratilib masala yuzasidan o'z munosabatlarini o'rtaga qo'yadilar. Kichik guruhlar tomonidan ma'qul ko'rilgan fikrlar doskaga belgilab boriladi. Turli qarashlardan iborat umumiy fikrlar platformasi hosil qilinadi. Har bir kichik guruhning xulosasiga alohida rag'bat ko'rsatiladi.

Aqliy hujum metodini qo'llash bo'yicha savollar:

1. Fonetika nimai o'rgatadi? Javob variantlari: 1. Nutq tovushlarini. Izoh. 2. Yo'q, so'zlarni. Izoh.

2. Talaffuzulyatsion fonetikada nimalar o'rganilishini misollar yordamida tushintiring Javob variantlari: 1. Javob. Izoh. 2. Javob: Izoh.

3. Leksikologiya bilan semasiologiyaning farq bormi? Javob variantlari: 1. Bor, birinchisi tilning lug'at boyligini, ikkinchisi so'zlar ma'nosini o'rganadi. 2. Yo'q, har ikkisi ham bir so'zning ikki tildagi ko'rinishi.

Boshlangich sinflarni o'qitish jarayonida quyidagi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

«3 in 1» (uchtasi birda) metodi

Bu metod mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ta'limda muvaffaqiyat bilan keng qo'llanib kelinayotgan uchta metodni birlashtirib qo'llashni nazarda tutadi. Ya'ni: aqliy hujum, forum va inferens metodlari. Dars jarayonida ba'zan birgina metodni qo'llash etarsiz bo'ladi. Boshlangich sinf o'quvchilari qiziqishini inobatga olib boshqa metodarni ham bir dars mobaynida me'yorni unutmagan holda qo'llash yaxshi samara berishi mumkin. Ma'lumki ko'pgina metodlar maktab o'quvchilari saviyasiga mo'ljallab ishlab chiqilgan. Boshlangich sinf o'quvchilari mustaqil fikrlashi, voqelikka tanqidiy, mantiqiy va

shaxsiy munosabatini bildira olish bilan narsa hodisalar hususiyatlaini o'rganishni hohlashadilar. Shularni hisobga olib darsda turli metodlarni sintezlash, samarador jihatlaridan erkin va ijodiy foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. «3 in 1» metodining yaxshi tarafi shundaki, dars materialini hisobga olib turli metod elementlarini ixtiyoriy ravishda birlashtirib qo'llash imkoniyati mavjud.

### **«3 in 1» metodining afzalliklari**

1. O'qituvchining dars mavzusiga mos metodlarni tanlash huquqiga egaligi.
2. O'quv jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalarning mavjudligi va sharoitga moslashishning qulayligi.
3. Boshlangich sinf o'quvchilari tayyorgarligi, mavzuni qay darajada qamray olishiga ko'ra eng ma'qul metodlarni tanlashga qulayligi.
4. Boshlangich sinf o'quvchilari sonidan kelib chiqib metod tanlash imkonining mavjudligi.
5. Vaqtni hisobga olib mavjud metodlarning eng muhim elementlarni tanlash imkoniyatining mavjudligi.
6. O'tilayotgan mavzuga boshlangich sinf o'quvchilarining erkin munosabat bildira olishi.
7. Boshlangich sinf o'quvchilarining voqelikka farqli jihatlardan yondashish mumkinligini anglashiga yordam berishi.
8. O'zigi ishonch bildirilayotganligini muntazam his qilishi natijasida talabalarda ilmiy munosabat bildirish malakasining shakllanishiga yordam berishi.

### **«3 in 1» metodning kamchiliklari**

1. O'qituvchi- o'qivchi munosabati va o'rtadagi farq saqlanib qoladi. O'qituvchining xulosasi muhim bo'lib qolaveradi. Muammolar echimida o'qituvchi munosabati etakchilik qiladi.
2. Guruhdagi barcha boshlangich sinf o'quvchilarining faolligini ta'minlashning imkonsizligi.
3. Munozaralar sababli yuzaga keladigan shovqinning mavzuning tushunilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi.

### **«3 in 1» metodini qo'llash uchun o'qituvchilarga tavsiyalar**

1. Boshlangich sinf o'quvchilarini mustaqil shaxs sifatida e'tirof etishingizni bildiring va o'zingiz bunga birinchi navbatda amal qiling.
2. Boshlangich sinf o'quvchilarining zaif tomonlarini sezganda unga e'tiborliroq bo'ling.
3. O'quvchi fikr bildirayotganda uni e'tibor bilan tinglang va dastaklang.
4. Boshlangich sinf o'quvchilari masalaning echimini topgunicha sabr bilan kuting.
5. Boshlangich sinf o'quvchilari noto'g'ri fikri uchun jazolamang, kamsitmang.
6. Ta'qiqlashda nimani qilmaslikni emas nega qilmaslik kerakligini tushuntirishga harakat qiling.
7. Muvaffaqiyatli harakat va yaxshi fikr egalarini, faol o'quvchilarni muntazam rag'batlantirib boring.
8. Boshlangich sinf o'quvchilarining zerikishiga imkon bermang.
9. Har bir oquvchining faol ishtirok etishiga imkon yarating.
10. Hech qachon «sening fikring noto'g'ri» demang.
11. Darsdagi muammoning echimi haqida darsdan so'ng ham munozara davom etishiga erishing.
12. Boshlangich sinf o'quvchilarini hech qachon «a'lochi» va «ikkichi» kabi toifalarga ajratmang.
13. Oson tushuniladigan, adabiy ravon tilda so'zlang. Ovoz ohangini mavzuga mos ravishda o'zgartirib boring.
14. Xulosa chiqarishga shoshilmang.
15. Darsingizni va o'quvchilaringizni hurmat qiling.

### **Inferens metodi**

«Inferens» ingliz tilida «xulosa» degan ma'noni bildiradi. Ushbu metodni har qanday mavzuga qo'llash mumkin. O'qituvchi mavzuni tushuntirib bo'lgach, o'quvchilarga bo'sh kartochka tarqatadi. O'quvchi mavzu bo'yicha o'zi tushungan narsani bo'sh kartochkaga yozadi. Kartochkaga hech qanday ism-sharif yozilmaydi. O'qituvchi uchun bu fikrni kim yozganligi emas, mavzuni

o'quvchining qanday tushungani va uni qanday xulosalay olgani muhim hisoblanadi. Keyingi darsning takrorlash qismida o'qituvchi o'quvchilarning o'tgan dars yuzasidan bildirgan xulosalariga munosabat bildirib boradi.

Xotira o'tmishning ifodasi sifatida quyidagi asosiy funksiyalari yordamida amalga oshadi: ilk idrok etilgan materialni eslash, saqlash, tanish va bayon etish. Eslab qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Agar inson o'z oldiga materialni eslab qolish maqsadini qo'ymasa, material irodaviy harakatlarsiz, istaksiz esda saqlansa, bu ixtiyorsiz eslab qolish sanaladi. Agar inson oldida materialni eslab qolish, uni egallash maqsadi tursa, bu ixtiyoriy eslab qolish-dir. T.V. Razonova tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar predmetni joylashuv o'rnini bilan aloqasini ixtiyorsiz ravishda eslab qolishi kuzatilgan.

Amaliyotda tekshiruvchilarga tanish predmetlar tasvirlangan 16 ta rasm berilgan. Rasmlar berkitilgan holda bo'lgan. Tadqiqotni ketma-ketlikda rasmlarni ochib ko'rsatgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ochilayotgan rasmda nima tasvirlanga-nini bayon etishgan. Keyin rasmlar planiyotdan olinib, qayta ko'rsatilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola bu rasmning jo'yini ko'rsatishi lozim bo'lgan. Tekshiruvchi sifatida bog'cha yoshidagi va II, IV va VI sinfda o'qiydigan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tanlangan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar topshiriqni yaxshi bajarganlar, ixtiyorsiz predmetlar joylashgan joyini eslab qolganlar. Faqat bog'cha yoshidagi kar va sog'lom bolalar o'rtasida farq sezilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari kabi rasmlarning joylashuv o'rnini yaxshi eslab qolganlar. Shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola eslab qolgan materialni so'z orqali bayon etish (so'zli ifoda) holati T.V. Razonova tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotda eslab qolish obyekt sifatida 6 ta o'xshash sxematik figuradan foydalanilgan. Ayrim figuralar uchburchak, ba'zilari doi-ra shaklida bo'lgan. Figuralar ketma-ketlikda ko'rsatilgan. Tekshiruvchilarga III va IX sinf eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom o'quvchilariga diqqat bilan har bir figurani ko'rib chiqish va eslab chiqish taklif etilgan. Tekshiruvchilarga ko'rgan figuralarini aniq bayon etishlari tushuntirilgan. Tadqiqot natijasida, ko'rsatilgan figuralarni so'zli ifodalash asosida

esda qolgani, figuralarga xos in-dividual belgilar aniq saqlangani kuzatilgan. So'zli ifodalanmagan figuralar boshqa figuralar bilan almashtirib yuborilgan holda esda qolgan. Yuqori sinfdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar III sinfdagi o'quvchilarga nisbatan so'zli ifodalarni ko'p qo'llaydilar. Lekin eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar eshituvchilarga nisbatan figuralar kam so'zli ifodani bayon etganlar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar imo-ishoralarni ham qo'llaganlar, bu ham eslab qolish jarayonini samarali bo'lishgacha olib kelgan. Bu tadqiqot natijasiga ko'ra, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar mu-rakkab materialni eshituvchilarga nisbatan yomon eslab qoladilar. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bola eslab qolish lozim bo'lgan figurani so'zli bayon etsa, bu eslab qolish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Materialni eslab qolish berish usuliga bog'liqligi yuqori-da ta'kidlangan tadqiqotda tekshiriluvchiga figuralar ikki xil usul bilan beriladi. Birinchi usulda figura ekranda butunligiga, ikkinchi usulda ketma-ketlikda asta-sekin namoyon bo'lgan.

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, barcha figurani bir vaqtda ko'rsatilganda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarni obyektini eslab qolishida farq-lar kuzatilmadi. Ketma-ketlikda predmetlarni ko'rsatilganda eshiti-shida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sog'lom o'quvchilarga nisbatan yomon eslab qolganlar. Ketma-ketlikda figuralarni ko'rsatish eshiti-shida nuqsoni bo'lgan bolalarning eslab qolishini qiyinlashtirgan. Bunda figuralarning ayrim qismlari idrok etilib, asosiy mohiyatiga e'tibor kam qaratilgan. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar idrok etilganni bir butunga fikriy integratsiya qilishda qiy-nalishi dalillandi.<sup>9</sup>

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlarni egallash maxsus ta'lim jarayonida amalga oshadi va sog'lom bolalardan shu xususi-yati bilan orqada qoladi. Tadqiqotlarning birida eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarning 3 turdagi so'zlarni idrok etish tadqiq etilgan.

---

<sup>9</sup> «Ta'lim to'g'risida»gi qonun G'G' «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – Toshkent: O'zbekiston, 1997.

1. Ko'rish orqali idrok etilayotgan predmet va hodisalarni ifodalovchi so'zlar.
2. Taktil analizatori yordamida idrok etiluvchi predmet belgisini ifodalovchi so'zlar.
3. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Tadqiqot natijalari tahlili ko'rsatishicha, ko'ruv orqali qabul qiluvchi so'zlarni, ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarda farq kuzatilmaydi. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasida farq mavjud. Bu turdosh so'zlarni eslashida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalardan qoladi. Lekin teri analizatori orqali idrok etilayotgan so'zlarni eslashida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ustunligi kuzatildi. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar asosan ovoz chiqaruvchi hayvonlar va ovoz chiqarib ishlaydigan mexanizmlarni ifodalovchi so'zlarni yaxshi eslab qolishi namoyon bo'ldi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda obyektlarning ovozi haqidagi tasavvur saqlangan analizatorlar faoliyati asosida amalga oshadi. Eshituv tasavvurlari doirasidagi fe'llar ko'ruv vibratsiyasi, taktil doirasidagi fe'llar bilan almashtirilishi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'p kuzatiladi. Ayrim eshitishida nuqsoni bo'lgan V sinf o'quvchilari so'zlarni, fe'llarni quyidagicha almashtirib qo'llaydilar: qor - yaltiraydi, daryo - to'lqinlanadi, muz — sinadi, bo'laklanadi, shamol - esacli, bo'ron - u yoqdan bu yoqqa boradi. Maxsus tadqiqotlarda hikoyalarni eslab qolish va bayon etish xususiyatlari ham o'rganilgan. Bunda eshituvchi bolalar hikoya mazmunini o'z so'zlari bilan gapirib beradilar, kar o'quvchilar esa bu matnning mazmunini gapirib bera olmaydilar. Bu holatni D.M.Mayans va L.K.Zankov eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar qo'llaydigan so'zlar «inert», so'z birikmalarida qotib qolgan so'zlardan foydalanishida deb asoslaydilar. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv xotirasining o'ziga xosligi ular so'zlashuv nutqining sekin tempda rivojlanishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'quvchilarni ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira-ni qo'llashga o'rgatish muhimdir. o'rganilayotgan materialni o'tilgani bilan qiyoslashga

o'rgatish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. ENB o'quvchilarda uzoq muddatli xoti-rada eslab qolishga o'rgatish savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savol-javob faqat o'tilayotgan mavzu bo'yicha emas, balki o'tilgan mavzu bo'yicha bo'lishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bo-lalar xotirasini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu takror turi o'quvchilarda qiyoslash operatsiyasini faollashtiradi, fikr ope-ratsiyasini rivojlantiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchini vaqtlar bo'yicha ajratilgan takrorlashga o'rgatish muhimdir. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga eslab qolish uchun berilgan material hajmiga ko'ra katta va oson bo'lsa, uni hammasini yodlash talab etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish muhimdir. Bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning fikrlash xotirasini rivojlantirishga ijo-biy ta'sir ko'rsatadi. Eshitish funksiyasi buzilganlik darajasini aniqlash uchun L.V. Neyman kar va zaif eshituvchi bolalarni tonal audiometriya va nutq yordamida tekshirgan. 1. L.V.Neyman tasnifi (1961)

Eshitishning o'rta buzilishi (yo'qolishi)ga ko'ra zaif eshituvchi bolalarning darajasi	Idrok etadigan chastotalar hajmiga ravishd bog'liq a kar bolalar guruhi
1-darajada — 50dB gacha	I - 125-225 G
2-daraja - 50dB dan 700 dB gacha	II - 125-500 G
3-daraja 70 dB dan yuqori	III - 125-1000 G IV - 125- G va 2000 un-dan yuqori

Zaif eshituvchilik va karlik

chegarasi 85 dB ni tashkil etadi
-------------------------------------

2. Xalqaro tasnif (1988)

I daraja - 26~40dB Karlik (90dBO)

II daraja - 41~55dB

III daraja - 56-70dB

IV daraja - 71-90dB

### **R.M. Boskisning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi (XX asrning 50-yillari)**

Bu tasnif eshitish va nutqning o'zaro ta'sirini psixologik o'rganish asosiga qurilgan. Tasnifning nazariy asosini eshitish analizatorida buzilishlar bo'lgan bola rivojlanishining o'ziga xosligini belgilay-digan qoidalar sanaladi.

1. Bolaning eshitish analizatori buzilishini kattalardagi shu kabi nuqsondan keskin tafovutlari bilan baholash zarur.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishini to'g'ri tushunish uchun nutqni mustaqil egallash imkoniyatini hisobga olish muhim.

3. R.M.Boskis bolada eshitishning yetarli emasligini eshitish-ning shu kabi buzilishida nutqning rivojlanganlik darajasi nuqtayi nazaridan baholaydi.

R.M.Boskis tomonidan ishlab chiqilgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi eshitish analizatori funksiyasida og'ishlar bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga oladigan mezonlar asosiga qurilgan. R.M.Boskis eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 2 asosiy guruhini ajratadi: karlar va zaif eshituvchilar.

Karlar guruhiga tug'ma yoki orttirilgan karlik natijasida og'zaki nutqni mustaqil egallay olmaydigan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar toifasida eshitishning pasayishi kuzatiladigan, biroq nutqi-ning (loaqaq minimal) rivojlanishi mumkin bo'lgan bolalarni ki-ritishadi. Nutqiy rivojlanishga bog'liq ravishda zaif eshituvchi bola-larning 2 guruhi farqlanadi:

- kichik nuqsonlarga (tovush talaffuzi buzilishlari, nutqning grammatik qurilishida buzilishlar) ega bo'lgan, nisbatan rivojlangan nutqni egallaydigan

bolalar;

- nutqiy funksiya rivojlanishida jiddiy kamchiliklar (jumlar qisqa, noto'g'ri qurilgan, ayrim so'zlar juda qo'pol tarzda buzilgan va sh.k.) bo'lgan bolalar.

Kar bolalarni ham nuqsonning yuzaga kelish vaqtiga nisbatan 2 guruhga bo'lishadi:

- eshitishni hayotining 1- va 2-yilida yo'qotgan yoki kar tug'ilgan bolalar;

- keyin kar bo'lib qolgan bolalar, ya'ni eshitishni 3—4 yoshida yoki undan keyin yo'qotgan, karlik ancha keyin yuzaga kelgani sababli nutqni saqlab qolgan bolalar. «Keyin kar bo'lib qolganlar» termini shartli xarakterga ega, chunki bolalarning bu guruhini kar-lik yuzaga kelgan vaqt emas, balki eshitish yo'qligi holatida nutq-ning saqlanib qolgani tavsiflaydi. Keyin kar bo'lib qolganlar eshiti-shi pasaygan bolalarning alohida toifasini tashkil etadi.

## **II.BOB.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, shart - sharoitlari**

### **2.1.O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati**

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ta'lim tarbiya berish jarayonida o'yin ahamiyat kasb etadi, chunki o'yin bolalarning aqliy jihatdan faolligini oshiradi, bilimga doir ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ma'lumki, har bir o'yinda bolalar nutqiy muomalaga kirishadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'yin jarayonida ibora va gaplarni ko'p marotaba takrorlaydi. So'zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. O'yin bolalarning jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyalaydi. Aksariyat harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga yordam beradi. Xarakterli o'yinlarda uygun ritmik xarakterli harakatlari tarbiyalanadi, nutqning ravan, ifodali bo'lishiga erishiladi. To'g'ri tanlangan o'yinchoq rasm ko'rgazmali qurollar estetik didni tarbiyalaydi.

O'yinlar o'z qoidalarini asosida tashkil etiladi. O'yin qoidalariga rioya qilgan holda o'quvchilar jamoada o'zini tuta bilishni o'rtoqlarini hurmat qilishni ularga yordam berishni o'rganadi, intizomga odatlanadi.

O'yin sofligi va haqiqatgo'ylikni tarbiyalashga yordam beradi. O'yin jarayonida o'z kuchiga ishonch, intiluvchanlik ka'tiylik sinchkovlik tarbiyalanadi.O'yinlarning xarakteri tomoni shundaki, pedagoglar ta'lim jarayonida o'yin usuliga haddan ortiq berilmasligi kerak.

O'yinlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini shakllantiradi hamda boshqalarning nutqini tushunishga o'rgatadi.

Mazkur o'yinlarga o'quvchilar berilgan matnlardan muayyan nutq birliklarini ajratishadi. Ularda nutqni tushunish malakalari xosil bo'ladi. Tanish, xatto notanish bo'lgan so'zlar, iboralarni, atrofdegilar nutqini tushunib oladi. Masalan o'quvchilar "Buyruq bajar" o'yinida o'quvchilarning ko'rsatmalarini

bajaradi. "Aks sado" o'yini talaffuz malakalarini rivojlantiradi. "Javob ber", "Nima savol berdim?", "Imtixon, xa - yo'q" o'yinlari savol javob berishni bularning farki nimada, "Pochta", "Kur eslab qol", o'yinlarida o'z fikrini ravon ifodalashni o'rganadi. Ona tilini o'rganishda qo'llaniladigan o'yinlar shartli ravishda harakatli stol o'yinlarni, tinch hamda nutqiy va rolli o'yinlarga ajratiladi.

"Buyruqlar", "Koptok bilan o'ynaladigan o'yin", "Men o'tiribman", "O'z o'migni top", "Ok terakmi ko'k terakmi" o'yinlari xarakterli nutqiy o'yinlar bo'lsa, "Sichqonlar", "Pufak" nutqi o'yinlar hisoblanadi.

Roli o'yinlar intsenirovka stol teatrlari tarzida saxnalashtirilishi mumkin. Dastlab o'yin matni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilib olinadi. O'yin jarayonida takrorlanadi. Keyinchalik o'quvchilarda so'z boyligi ortgan sari nutqiy matrealdan mustaqil ravishda ijodiy foydalaniladi.

Rolli o'yinlardan o'quv materiallarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. O'quvchilar matn bilan tanishgach, asar shlashtiriladi. Stol teatri vositasida yoxud syujetli rlgmni ko'rsatib uni batafsil ifodalaydi, o'quvchilar esa rollpr positasida rasmdagi xarakterlarni va syujetli ishtirokchilarning nutqini aks ettiradi. Rolli o'yinda o'qituvchi uyatchan, kamgap bolalarni faol rollarga, haddan ortik faol bolalarni tinch rollarga jalb etishi kerak.

O'yin mavzusi dastur talabalaridan kelib chiqqan holda tanlanadi hamda tushunarligi hisobga olinadi.

O'yinlarning turini ortikcha o'zlashtirish ham to'g'ri emas. Ba'zan turli ta'limiy variantdan foydalanish yaxshi natijalari beradi.

Bunda yangi o'yinini tushuntirishga sarflanadigan vaqt tejaladi, nutqiy materialni mukammallashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Ko'zatuylari shuni ko'rsatadiki, tanish o'yinning yangi turi bolalar uchun qiziqarliroqdir.

Kichik maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mavhum tafakkuri rivojlanmagashshgi tufayli o'yinlarni ko'rgazmali holda tashkil etish tavsiya etiladi.

O'yinlarda turli o'yinchoq o'quv qurollari va prdemetlardan foydalaniladi.

Agar kerakli predmetlar bo'lmasa, predmet ham tavsiya etiladi. Tayyor kartochkalarining matnlarini maxsus dastur talablariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi turli kitob va jurnallardai olingan rasmlardan kerakli kartochkalar tayyorlaydi. Rasmlar yorqin rangda, katgaligi 10 sm x 10 sm bo'lib, kartonga yopishtiriladi. Bunday kartochkalar "rasmi loto", "Savodxonli estafetasi", "O'ylab top", "Kartochkali o'yin", "Magazin" va boshqa o'yinlarda ishlatiladi.<sup>10</sup>

Ba'zi o'yinlarda matnlar so'z, gaplar ifodalangan rasmsiz kartochkalardan foydalaniladi. Masalan, "Savolli loto" o'yinida kartochkalarda savollar yoziladi: "Izkuvarlar" o'yinda so'zlari tushirilib qoldirilgan kartochkalardan foydalaniladi. Mazkur kartochkalar o'quvchilar soniga karab tayyorlanadi, ularni to'plam qilib yil davomida foydalanish mumkin.

O'yin jarayonida asl o'yinchoqlardan tashkari, ularning o'rnini bosuvchi predmetlardan foydalaniladi. Masalan, "Pochta" o'yinida partalar - "uylar" va "xonalar", "qatorlar - kuchalar", o'qituvchi stoli - "pochta" va xakozolar bo'ladi. O'yinda muvaffakiyatga erishishi uchun uni to'g'ri tashkil etish va unga to'rri raxbarlik kilish talab etiladi.

Dastlab o'qituvchi o'yin koidalari, mazmuni va borishini tushuntirib beradi. O'qituvchi o'yin jarayonida o'quvchilarni nutqiy faollikka undaydi. Samarali tashkil etilgan o'yin xarakatlari va muomala vaqtida o'quvchilarda tabiiy erkin kommunikatsiyaga ershiladi.

O'yinlar jarayonida o'quvchilar tilni egallashlari, nutqiy muomalaga erkin kirisha olishlari talab etiladi.

O'yin jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'qituvchi kuzatib borish jarayonida hisobga olishi va qanday to'g'rilashni rejalashtirilishi kerak. Datslab o'quvchilar muomalada turli xatolarga yo'l qo'yishi mumkin, bu xolatlar asta — sekin o'yinining borishini buzmasdan bartaraf etiladi.(masalan: dialoglar orasida). O'yin yakunida o'quvchilarni ko'prok, rarbatlantirish talab etiladi. O'yinning

---

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport–tarbiyaviy ish yunalishi. – Toshkent: 2006

ayniqsa, musobaqa o'yinlari natijalarini baxolashda quyidagi ragbatlantirish usullari qo'llaniladi:

1. To'g'ri javob uchun ball berish.
2. Xatolar uchun jarima ball olish.
3. Xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchidan sovrinli fishkalarini olib qo'yish.
4. O'yinda ko'p ball to'plangan o'quvchilar g'olib chiqadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan ballar o'yin yakunida ragbatlantirish, ularni o'z kuchi ishonish hamda muloqotga faol kirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim — tarbiya jarayoni samarasi natijalarga erishishi va nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Nuqsonli bolalarda xayol, ayniqsa, yosh bolalarda o'ziga xos xususiyat, ko'rinishga ega. Eshitish qobiliyati buzilgan bola-lardagi xayolning o'ziga xosligi ulardagi og'zaki nutq va mantiqiy tafakkuri-ning kechikib shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Ko'rish tasavvurlari har doim ham kerakli darajada tahlil etilmaydi. Shu sabab ular tomonidan yangi predmetlar tahlili qiyosiy amalga oshadi. Demak, nuqson: ko'rishmi, eshitishmi, aqliymi, nutqmi baribir xayol jarayonlarining kechishiga, shakllanishiga, rivojiga o'z sal-biy ta'sirini o'tkazmay qolmas ekan. Bu deyarli isbot, tushuntirish talab etilmaydigan haqiqatdir. Lekin, bu taassurotlarni qancha erta, muvaffaqiyatli korreksiyalasak o'quvchilarda xayol jarayonlari shunchalik tez va to'liq rivojlanishi mumkin. Bu jarayonning tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga olsak, masala-ning mohiyati yanada tezroq ravshanlashadi Xayol shaxsning intilishi, talablari bilan ham belgilanadi. Ko'rgan, eshitgan, bilgan narsalar obrazlari xotiramizda saqlanadi. Kerak vaqtda bularni tiklashimiz mumkin. Bu jarayon xotira obrazlari sifatida jonlanadi. Yoki, tasavvurlar shaklida ko'z oldimizga keladi. Xayol obrazlari tasavvur obrazlaridan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Tafakkur va xayol oralig'ida uzviy, mantiqiy birlik, bog'liqlik bor. Ammo, o'ziga xos farqlari ham bor. Bularni ajrata olish darkor. Inson biror murakkab muammoni yechishi talab etilganda tafakkurga murojaat etadi. Bunday natijalarga erishish yo'llari mavjud bo'lsa, tafakkur orqali

biz tafakkurdan ko'ra xayol kuchiga tayanamiz. Xayolning rivojlanishi konkret ko'rgazma obrazlardan mavhum tushunchalar orqali yangi xayol obrazlari ijod qilish tarzida amalga oshirib boriladi.

Ma'lumki, nutq mavhum tafakkur rivojida alohida, muhim o'rin egallaydi. A.S.Vigotskiy ma'lumotlariga ko'ra, nutqi zararlangan bolalarda xayol jarayonlari ham izdan chiqar ekan. Bu toifa bolalar ko'chma ma'nodagi so'zlarni ham qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar, kamchiliklar bilan egallashlari suhbatda, ular xayollari ham me'yoriy shakllanishdan chetga chiqar ekan. Ixtiyorsiz xayolga ma'lumki, tush ko'rish va turli gallutsinatsiyalar misol bo'la oladi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, normal eshitadigan bolalar bilan eshitish qobiliyati buzilgan bolalar chizgan suratlar orasida ham ma'lum farqlar mavjud. Ajablanarli joyi shundaki, tasvirlangan suratlardagi predmetlar soni jihatidan normal eshituvchi bolalar orqada ekanlar. Ranglarni berishda karlar orqada qolganlar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar suratlari sinflar yuqorilashgan sari normal bolalar suratlari yaqinlashib borar ekan. Mualliflar eshitish qobiliyatlari buzilgan bolalardagi ijodiy xayol xususiyatlari borasida turli xil fikr bildirganlar. Ayrimlari hatto ijodiy xayolni tasavvur bilan almashtirganlar. Eshi-tish analizatorining zararlanishi oqibatida bu bolalarning tashqi dunyoni aks ettirish faoliyati, ijtimoiy muhit ham bu toifa bolalar shax-sining mukammal shakllanishiga salbiy ta'sir etar ekan.

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sobiq sovet psixologiyasi va defektologiyaning nazariy

jihtdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning tuxtash nazariyasi", "chegara" degeneratsiya nazariyasi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy va reaksiyon nazariyalarni fosh etdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy ham salbiy tomonlarni aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Sog'lom va anomal bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishini I. M. Solovyev ham har tomonlama o'rgandi. "Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi" nomli kitob shu ishning natijasi bo'ldi. I. M. Solovyev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o'rganishda chinakam novatorlik ko'rsatdi.

Eksperimental defektologiya instituti 1943 yilda Rossiya Pedagogika fanlari akademiyasining Defektologiya ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi. Hozirgi zamon korreksion pedagogika fanining rivojlanishida mazkur institut xodimlarining roli nihoyatda katta buldi.

1920 yilda Rusiyada anomal bolalarni tarbiyalash instituti ochilib, 1925 yilda bu institut 2-Moskva davlat universiteti pedagogika fakultetining defektologiya bo'limiga aylantirildi, 1930 yili V. I. Lenin nomidagi Moskva davlat pedagogika instituti qoshida mustaqil defektologiya fakulteti tashkil etildi. Hozir Rossiya mamlakatining deyarli barcha jumhuriyatlarida korreksion pedagogika qulliyotlari yoki bo'limlarida oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda korreksion pedagogika fanining rivojlanishi 1967 yildan boshlab tezlashdi, chunki shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limga 1976 yili surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984 yili esa mustaqil defektologiya fakultetining bir necha bo'limida ta'lim berila boshlandi. Hozirgi kunda TDPU BTU va defektologiya fakultetida Defektologiya kafedrası faoliyat ko'rsatmoqda, defektolog bakalavr va magistrilar taxsil olmoqdalar. Tallim kunduzgi va

sirtqi bo'limda uzbek va rus tilida tashkil etilgan.

Normal bolalarda singari akli zaif bolalarda ham nutq buzilishining barcha shakllari ya'ni dislaliya, rinolaliya, dizartriya, alaliya, disfafiya, duduqlanish, afaziya uchraydi. Normal rivojlanayotgan bolada nutqning shakllanishi hayotiy tajribaning ortishi bilan uzviy bog'liklikda bo'lib, bolaning faol amaliy va bilish faoliyatlari uning tasavvur doirasini kengaytirib, unda yangi qizikish va ehtiyojlarning paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Akli zaif bola nutqining rivojlanishi ham hayotiy tajribaning boyishi va atrofdagilar bilan muloqat etish bilan shartlanadi. Biroq ruhiy jarayonlarning rivojlanmaganligi nutqiy tajribani oshirish jarayonining kechikishiga olib keladi. Anomal rivojlanayotgan amaliy va bilish faoliyati katta miqdordagi turli- tuman tasavvurlarning to'planishiga etarlicha asos bo'lib xizmat qila olmaydi va bolada yangi ehtiyoj va kiziqishlarning namoyon bo'lishiga ko'maklashmaydi. Bilish faoliyatining buzilishi tilning semantik tomondan o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun akli zaif bolalar semantik jihatdan murakkab bo'lgan so'zlarni va grammatik shakllarni qiyinchilik bilan egallaydilar.

Bolalar tomonidan nutqning ma'nosi nafaqat ularning atrof-olam, bir-birlari haqidagi bilimlardan, mulokat vaziyatidan, balki til tizimining senantikasidan anglaniladi. Logopediya nazariyasi va amaliyotining tahlili, bola nutkining semantik tomonining rivojlanishi tilning leksik va grammatik aspektlarining bir-biridan ajratilgan holda o'rganilishini ko'rsatdi. Nutqiy amaliyotda bu aspektlar bir-biridan ajralmas. Leksik semantikaning o'zlashtirilishi lugat ustidagi ish asosida, fammatik semantikaning o'zlashtirilishi nutkning fammatik tizimi ustidagi ish jarayonida amalga oshadi. Biroq, ularning o'zaro bog'likligi logopediyada etarlicha hisobga olinmagan. Bu logopediyada semantikani tushunishga bo'lgan psixolengvistik yondashuvning etarlicha ishlab chikilmaganligi va zamonaviy logopediya va tilshunoslikning terminologik apparatining o'zaro mos kelmasligi bilan asoslanadi. Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuvning keyingi rivoji maktabgacha yoshdagi akli zaif bolalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlarining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishi va nutqiy nuksonni

kompensatsiya etish mexanizmining shakllanish imkonini beradi.

An'anaviy yondashuvlarda ko'llanilayotgan aqli zaif bolalarda nutqning semantik tomonini rivojlantirish usul va metodlarida nutqiy ma'no va til mazmunining o'zaro bogliqligining etarlicha inobatga olinmagan, bu esa akli zaif bolalarni tilga o'rgatishning funktsional semantik tamoyilining buzilishiga olib kelmoqda. Bu butun korreksion-logopedik ish samaradorligiga ta'sir etib, tadqiqotimiz muammosini belgilaydi.

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, barcha figurani bir vaqtda ko'rsatilganda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarni obyektini eslab qolishida farq-lar kuzatilmadi. Ketma-ketlikda predmetlarni ko'rsatilganda eshiti-shida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sog'lom o'quvchilarga nisbatan yomon eslab qolganlar. Ketma-ketlikda figuralarni ko'rsatish eshiti-shida nuqsoni bo'lgan bolalarning eslab qolishini qiyinlashtirgan. Bunda figuralarning ayrim qismlari idrok etilib, asosiy mohiyatiga e'tibor kam qaratilgan. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar idrok etilganni bir butunga fikriy integratsiya qilishda qiy-nalishi dalillandi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlarni egallash maxsus ta'lim jarayonida amalga oshadi va sog'lom bolalardan shu xususi-yati bilan orqada qoladi. Tadqiqotlarning birida eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarning 3 turdagi so'zlarni idrok etish tadqiq etilgan.

1. Ko'rish orqali idrok etilayotgan predmet va hodisalarni ifodalovchi so'zlar.
2. Taktil analizatori yordamida idrok etiluvchi predmet belgisini ifodalovchi so'zlar.
3. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Tadqiqot natijalari tahlili ko'rsatishicha, ko'ruv orqali qabul qiluvchi so'zlarni, ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarda farq kuzatilmaydi. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishida nuq-soni bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasida farq mavjud. Bu turdosh so'zlarni eslashida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalardan

qoladi. Lekin teri analizatori orqali idrok etilayotgan so'zlarni eslashida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ustunligi kuzatildi. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar asosan ovoz chiqaruvchi hayvonlar va ovoz chiqarib ishlaydigan mexanizmlarni ifodalovchi so'zlarni yaxshi eslab qolishi namoyon bo'ldi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda obyektlarning ovozi haqidagi tasavvur saqlangan analizatorlar faoliyati asosida amalga oshadi. Eshituv tasavvurlari doirasidagi fe'llar ko'ruv vibratsiyasi, taktil doirasidagi fe'llar bilan almashtirilishi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'p kuzatiladi. Ayrim eshitishida nuqsoni bo'lgan V sinf o'quvchilari so'zlarni, fe'llarni quyidagicha almashtirib qo'llaydilar: Qor - yaltiraydi, daryo - to'lqinlanadi, muz - sinadi, bo'laklanadi, shamol - esacli, bo'ron - u yoqdan bu yoqqa boradi. Maxsus tadqiqotlarda hikoyalarni eslab qolish va bayon etish xususiyatlari ham o'rganilgan. Bunda eshituvchi bolalar hikoya mazmunini o'z so'zlari bilan gapirib beradilar, kar o'quvchilar esa bu matnning mazmunini gapirib bera olmaydilar. Bu holatni D.M.Mayans va L.K.Zankov eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar qo'llaydigan so'zlar «inert», so'z birik-malarida qotib qolgan so'zlardan foydalanishida deb asoslaydilar. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv xotirasining o'ziga xosligi ular so'zlashuv nutqining sekin tempda rivojlanishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'quvchilarni ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira-ni qo'llashga o'rgatish muhimdir. o'rganilayotgan materialni o'tilgani bilan qiyoslashga o'rgatish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. ENB o'quvchilarda uzoq muddatli xoti-rada eslab qolishga o'rgatish savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savol-javob faqat o'tilayotgan mavzu bo'yicha emas, balki o'tilgan mavzu bo'yicha bo'lishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar xotirasini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu takror turi o'quvchilarda qiyoslash operatsiyasini faollashtiradi, fikr operatsiyasini rivojlantiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchini vaqtlar bo'yicha ajratilgan takrorlashga o'rgatish muhimdir. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga eslab qolish uchun berilgan material hajmiga ko'ra katta va oson bo'lsa, uni hammasini yodlash talab etiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish muhimdir. Bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning fikrlash xotirasini rivojlantirishga ijo-biy ta'sir ko'rsatadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning obrazli xotirasini tekshirish-da T.Y. Ribakov (1911) tomonidan tavsiya etilgan «Shaklni top», D. Vekslarning subtest shkalasi metodikalaridan foydalaniladi

## **2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlari**

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda. Bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekiston Respublikasida aholini davolash profilaktika yordamida kengaygani ham medisina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak , o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qolishi hodisalariga tamomila deyarli barham berildi. Irsiy omillar hamda intoksikasiya va organism shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolishi hollari hali ham uchrab turadi.

Hozirgi kunda ekologiya masalalarining keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaxarli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi nervlarini ishdan chiqaradi. Natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi. Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi. Chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib kamol topib borishiga dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha va maktab programmalarini o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqqa rivojlangandan so'ng masalan, ikki yoshida yo'qolgani ham karlik natijasida bola atrifdagilar nutqini eshitmaydi hattoki bilganlarini ham asta sekin unutadi. Boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus korreksion roslyadigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib ularni ham nutqiy

rivojlanishini ham umumiy aqliy rivojlanishini ta`minlaydi. Qulog`I og`ir bolalar uchun maxsus tashkil etilgan bog`cha hamda maktab internatida barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o`qituvchilar bunday bolalarni tegishli ta`lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak. Yuqorida qayd etilganidek surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug`ma va orttirilgan bolalar kiradi. Qulog`I og`ir bolalar o`z navbatida eshitish qobiliyatining nechog`li buzilishiga qaramay yengil, o`rta va og`ir kamchiligi bor bolalarga bo`linadi. Yebgil darajadagi qulog`I og`ir bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6-8 m masofadan ovoz chiqarmay shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3-6 m masofada eshitadi. O`rta darajadagi qulog`I og`ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4-6m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1-3m masofadan eshitadi. Og`ir darajali qulog`I og`irlikda bola o`rta mryorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2m, shivirlashni 0,5m masofadan eshitadi xolos. Qulog`I og`irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug`atining kambag`al bo`lishi, Grammatik component rivojlanmagan –gapichid a so`zlarni tashlab ketish, so`zlarni noto`g`ri ishlatish, ularni o`zaro bog`lay olmaslik, kelishik.,so`z yasovchi, so`z o`zgartiruvchi, qo`shimchalarni ishlata olmaslik: tovushlarni noto`g`ri talaffuz qilish – o`xhsash jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir. Boal nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim atrbiyachi va o`qituvchilar bolani dangasa, mas`uliyatsiz, bezori deb unga noto`g`ri munosabatda bo`lishadi, natijada bola injiq, yig`loqi, jarroqi serjahl gap o`tmas bo`lib qoladi, ya`ni unda ikkilamchi ruhiy o`zzgarishlar paydo bo`ladi. Yengil darajadagi qulog`I og`ir bolalar sog`lom tengdoshlari qatorida ommaviy bog`cha va maktabda tarbiyalanishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo`lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratsih talab etiladi. Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagoglarning katta yutuqlariga erishmoqdalar. Ushbu kategoriyadagi anomal bolalar maxsus (kar bolalar uchun, qulog`I og`ir bolalar uchun) maktab internatlarida maxsus kechki maktablarda ta`lim olganlaridan keyin oily o`quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli

bitirib chiqmoqdalar. Mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak eshitish nuqsonlarini batamom bartaraf etish, to`la kompensatsiyalash, korreksiyalash mumkin. Tarbiyachi va o`qituvchilarning asosiy vazifasi – qulog`I og`ir bolalarni boshqa bolalardan ajratib ularga alohida yondashish, zarur bo`lsa ularni maxsus muassasalarda ta`lim-tarbiya olishini ta`minlashdan iborat.<sup>11</sup>

Ko`rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tevarak atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko`z bilan idrok etiladi. Bola ko`rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o`rni haqida tasavvurga ega bo`ladi. Ma`lum ko`rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism-ko`z olmasi va uning yordamchi apparatlaridan ko`zga tushgan tasvirni avval po`stloq osti markazlariga keyin esa oily ko`ruv markazlari joylashgan katta miya po`stlog`iga yetkazib beradigan o`tkazuvchi yo`llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qisimlardagi o`zgarishlar bolaning ko`rish qobiliyatiga albatta ta`sir ko`rsatadi. Tiflopedagogikada ko`zi ojiz bolalar ko`r, yaxshi ko`ra olmaydigan ko`zi xira bolalarga bo`linadi. Ko`r bolalarning ko`rish qobiliyati keskin kamaygan yoki korreksiya qo`llanilganida ham ko`rish o`tkirligi 0,04 gacha pasaygan ya`ni bunday bolalar amalda ko`r bo`ladi. Ko`zi xira bolalarda ko`rish o`tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo`lishi mumkin. Ushbu guruhdagi bolalar tevarak atrofni ko`rish analizatori orqali idrok etadi. Ko`rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko`ra tug`ma va orttirilgan bo`ladi. Tug`ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar, homilador ayolning toksoplazmos, qizilcha kasalliklari bilan og`rishi, homila ko`rish organlarining embrional rivojlanish paytida zararlanishi, miya o`smasi va shu kasalliklar katta rol o`ynaydi. Orttirilgan ko`rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash profilaktika oftamologiya yordamining yaxshilangani hamda tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar

---

<sup>11</sup> Badmaev B.TS. Psixologiya: kak ee izuchit` i usvoit`. M., Uchebnaya literatura, 1997.

Davletshin M. Va b. Psixologiya izohli lug`at. T., O`qituvchichi, 1998.

qo`lga kiritilgani munosabati bilan ko`zi xira bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, ko`z sili, qizamiq, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko`r yoki ko`zi xira bo`lib qolish hodisalariga deyarli tamomila barham berildi. Ko`z ojizligi ya`ni ko`rish nuqsonlari zo`rayib boradigan va bir xil turadigan bo`ladi. Zo`rayib boradigan xili kun sayin og`irlashib, bora-bora ko`rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg`un bo`ladi, bolaning ko`rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko`rish qobiliyatining zo`rayib boradigan zaifligi ko`k suv, ya`ni glauxoma kasalligi ko`ruv nervi atrofida to`r parda distrofiyasiga bog`liq bo`lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida kelishi mumkin. Gigiyenik talablarga rioya qilmaslik refrakmiya anomaliyalar bilan bog`liq bo`lgan ko`z kamchiliklari zo`rayib borishiga ham olib boradi. Ko`rish qobiliyatining og`ir shakldagi buzilishlari bolaning xarakteriga psixikasiga ikkilamchi asoratlar paydo bo`lishiga olib keladi. Ko`r bo`lib qolgan bolalar bilan barcha ishlar ularning ko`rish tasavurlarini tiklash asosida olib boriladi va bunday malum natijalarga erishish mumkin bo`ladi. Har holda bola rang shakl va boshqalarni bir qadar eslab qoladuki bu tegishli tushunchalar hosil qilishni osonlashtiradi. Ko`z ojizligi qancha kech paydo bo`lgan bo`lsa bolaning tevarak –atrof haqidagi tasavurlari shuncha boy va ularni mustahkamlash, takomillashtirish, kengaytirish shunchalik oson bo`ladi. Ko`rish qobiliyati keskin kamaygan bolalar ko`zi ojiz bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablarda ta`lim olishlari kerak. Bu maktablarda sog`lom analizatorlarning aktiv faoliyati asosida ko`rish analizatori faoliyatini qoplash ishlari olib boriladi. Maxsus ta`lim tarbiya ishlari ko`rish qobiliyatining zaifligi natijasida paydo bo`lgan ikkilamchi psixik asoratlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, korreksiyalashga qaratiladi. Bolada mustaqil hayot uchun zarur bo`lgan barcha bilim ko`nikma hamda malakalar shakllantirilib boriladi. Ko`zi xira bolalar tevarak atrofni ko`rish analizatori orqali idrok etadilar. Ular ham ko`rish qobiliyati zaif bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktabda yoki ko`rlar maktabi qoshidagi maxsus sinflarda ta`lim olishlari kerak. Biroq bunday bolalar aksari ommaviy maktablarda o`qishni boshlashi ma`lum. Bir necha yil muvofaqiyatsiz ravishda qiynalib o`tigach ular maxsus maktablarga yuboriladi. Bunday bolalarni

tarbiyachi va o`qituvchilar sog`lom tengdoshlaridan ajratib olib iloji boricha vaqtli maxsus maktablarga jo`natishlari kerak. Ko`rish qobiliyati zaiflashgan bolalar satriani yaxshi ajrata olmaydilar. Shartli o`xshash narsa, harflarni bir-biri bilan adashtirib yuboradilar, natijada o`qish va yozishda ko`p xatolarga yo`l qo`yadilar. Raqamlarni bir-biridan ajrata olmaslik oqibatida hisoblashda va matematik masalalarni hal etishda qiynaladilar. Ular doskaga yozilganlarni jadval, sxema va boshqa tasvirlarni yaxshi ko`rmaydilar. Ko`rish bilan bog`liq ishini bajarish vaqtida tez charchab qoladilar. Noto`g`ri muhit, noqulay sharoit bolani ko`rish qobiliyati keskin pasayib borishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyachi va o`qituvchilar ko`rish qobiliyati zaif bolalarni o`z vaqtida oftamolog huzuriga maslahatga yuborishlari kerak. Oftamolog bolani tekshirib kerak bo`lsa unga korreksiya qiladigan ko`zoynak taqib yurishini tavsiya etadi va bola qayerda ta`lim olishi kerakligini aniqlaydi. Ko`zoynak taqib yurishi kerak bo`lgan bolalarga bog`cha va maktab sharoitida to`g`ri sanitariya-gigiyena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o`rni to`g`ri va yetarli darajada yoritilishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o`quv materiallarini qanchalik aniq ko`rayotganiga e`tibor beriladi. Anomal refraksiyani bolalar ko`zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga iosh turlarini mumkin qadar o`zgartirib turish, ko`z qadash bilan bog`liq bo`lgan ishlar topshiriqlar hajmini g`oyat jiddiy nazorat qilib boorish zarur. Ko`z o`tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo`lgan bolalar maxsus bog`cha va maktablarda ta`lim-tarbiya olishadi. Bu joylarda o`quv ishlari ko`rish asosida olib boriladi, ammo turli texnik va kattalashtiruvchi optic vositalardan yiroqroq harflar bilan bosib chiqarilgan darsliklardan maxsus yoritgichlardan vahokazolardan foydalaniladi. Maxsus maktabning asosiy vazifalaridan biri- bolalarda saqlanib qolgan ko`rish imkoniyatlaridan o`qish jarayonida to`g`ri foydalanish va bularni rivojlantirish, ko`rish qobiliyati pasayib ketmasligi uchun shart-sharoit yaratish oily ruhiy jarayonlarni tarbiyalab bolaning bilim faoliyatini rivojlantirish, kengaytirish, bolada ko`rish qobiliyati zaifligi natijasida paydo bo`lgan ikkilamchi ruhiy asoratlarni bartaraf etish va boshqalardir. Maxsus maktablarni bitirgach ko`rish qobiliyati zaif bolalar jumhuriyat ko`rlar jamiyati qoshidagi muassasalarda

ishlaydilar. Intelektual faoliyat bilan shug'ullanadilar (yozuvchi, shoir, oily va o'rta maktab o'qituvchilari, muzikachi va boshqalar). Shunday qilib ko'rish qobiliyati zaif bolalarni ta'lim-tarbiya yo'li bilan rivojlantirib boorish imkoniyatlari juda katta. To'g'ri tashkil etilgan kompensator, korreksion chora-tadbirlar natijasida bular hayotida o'z o'rnini topib ketishlari mumkin.

Pedagogika va psixologiya fanida shakllantiruvchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Shakllantiruvchi metodlar-ning samaradorligi shundaki, bola ruhiyatining rivojlanishini, ruhiy hodisalarning mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanmasdan, balki eksperiment natijasida ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutiladi.

Diagnostik metodlar shaxs yoki jamoaning ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda miqdoriy va sifat jihatdan aniq tasnif-lashga imkoniyat yaratganligi uchun psixologiya fanining hamma sohasida keng qo'llanilmoqda. Asosan bular testlardir. «Test» ingliz tilidan olingan bo'lib, sinov, tajriba degan ma'noni bildiradi. Hozirgi amaliyotda bir necha mingdan oshiq testlar mavjud bo'lib, afsuski, ularning ko'p qismi milliy xususiyatlar e'tiborga olinib o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Chet el, asosan g'arb psixologiyasida testlar bi-lan ishlash keng ommalashgandir. Testlar yordamida bolalarning aqliy rivojlanish darajasi (intelektual koeffitsienti), iqtidorlilik dara-jasi, ruhiy holati, shaxs xususiyatlari, o'ziga va boshqalarga bahosi, kasb qiziqishlari va kasbga yaroqliligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ko'pgina metodikalarni tiflopsixologi-yada, ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni psixologik tekshirishda qo'llashning murakkab tomoni shundaki, o'quvchilar anketa va test savollarini o'zlari o'qishlari shart. Savollarni o'qib berish test nati-jalariga salbiy ta'sir etmaydimi, degan fikr mavjud. Tiflopsixologi-yada ilmiy-tadqiqot o'tkazish uchun yangi metodlar yaratish, mavjud metodlarni moslashtirish, takomillashtirish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

## UMUMIY XULOSA

Ta'lim tizimini isloh qilish davr talabi ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Mukammallik sari intilishning mevasi sifatida yangi o'quv dasturlari, yangi avlod darsliklari, ta'lim standartlari yaratilib, ta'lim muassasalariga etkazib berildi.

Bu yangi, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchini mustaqil fikrlashga undash bevosita o'qituvchi faoliyati bilan bog'liqdir. Yangi ta'lim standartlarini o'zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy texnologiya asosida ish yuritishni talab etadi.

Komil insonni tarbiyalash, albatta, ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlash bilan bog'liqdir. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish hal qiluvchi omillardan bo'lib bormoqda.

Ilm–fan va texnika–texnologiyalar sohasida erishilayotgan so'nggi yutuqlar bo'lajak mutaxassislar malakaviy darajasiga nisbatan bir qator talablarni qo'ymoqda. Ushbu talablardan biri bo'lajak mutaxassisni o'z sohasi bo'yicha yangiliklarni o'z vaqtida anglay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bunda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalari va o'qitishning interfaol usullarini keng joriy etish bo'lajak mutaxassislarning umumiy dunyoqarashi kengayishi, o'z kasbiga tegishli nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallashiga imkoniyat yaratiladi. Ushbu sohada, xususan o'quvchilarning faol o'qitishni shakllantirish borasida olib borilgan bitiruv malakaviy ishimizdan quyidagicha xulosalar chiqarish uchun asos bo'ldi:

Ta'lim jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydal orqali shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u xususiy ko'rinishlardan umumiy ko'rinishlarga, ya'ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlarga rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Bular orqali o'quvchilarni intellektual

salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratilib, uning yordamida erkin mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan vatanini xalqini himoya qiladigan yoshlarni tayyorlashga mustahkam asos bo'ladi. Korrekstion ishlar ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart.

Bunda emostional zo'riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak.

Tuzatish ishlari mashg'ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi. Unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yo'qotish imkoniyatini yaratadi.

Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa – bu bolalar, o'quvchilar o'sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi bo'lib hisoblanadi.

O'smir yoshidagi bolalarning tengqurlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish jarayonida, ularning individual xususiyatlari, shaxsiy sifatlari psixologik jihatdan o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Ko'pincha o'smirlar nafaqat tengqurlari bilan, balki katta yoshdagilar, ota-ona, aka-uka va opa-singillari, o'qituvchilar, maktabdoshlar (mikro-o'qituvchi, makro-ota-ona) bilan ijtimoiy muloqotga kirishish jarayonida har xil to'siqlarga duch kelishadi. SHu va shunga o'xshash muammolarni bartaraf qilish va ijobiylashtirish maqsadida bugungi kunda maktabgacha tarbiya muassasalarida, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maskanlarida psixologik xizmat tashkil qilingan. Maktab psixologlarining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarning muloqotga kirishuv jarayonida uchraydigan muammolarni yaxshilash va bartaraf qilish uchun ularning ishonchini qozonish, maktabdagi muhitning psixologik iqlimini aniqlashtirish, o'smirlarning katta va kichik yoshdagi o'quvchi va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatini yaxshilash hamda ularning aqliy jihatlarini o'rganish va shakllantirishdan iboratdir. Agar shu tarzda ish olib borishsa, maktab psixologlari o'quvchilarning xarakter xususiyati va o'zgaralar bilan o'zaro munosabatga kirishuvi jarayonidagi salbiy sifatlarini bartaraf qilishga va ijobiy sifatlarini shakllantirishga hamda

rivojlantirishga erishishi muqarrardir. Aloxida yordimga muxtoj bulgan bolalar uchun tashkil etilgan talim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari urganiladi, Ushbu talim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya ,reabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta'minlash; yura olmasa-nogironlar aravachasidan foydalanish, qulida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash va boshqalar.

Hozirgi kunda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogic va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining asosiy sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyala ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rgani, taxlil qilishlariga, hatto, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi..

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar sistemasini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallash orqali o'zlarining bilish jarayonlarini shakllantiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma'nosi ular ongiga singa boradi Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, bob bo'yicha xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, tarqatma matyeriallar, uslubiy ko'rsatmalardan tarkib topgan.

Bitiruv malakaviy ishi "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari " mavzusining asosiy jixatlari, o'quvchilarning korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish oqali ularni korreksiyalashning o'ziga xos psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari ded nomlanib unda, Boshlang'ich sinf

o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida, Kichik maktab yoshi o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning amaldagi ahvoli, O'quvchilarga korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobida Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, O'quvchilarga korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlarini o'rganishga qaratilgan nazariy fikrlar yoritilgan.

Inson kamoloti va uning yuksalishida yoshlarimizning ma'naviy jihatdan tarbiyalanganligi va ilmiy dunyoqarashi kengligi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham o'quvchilarimiz dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ular ongiga millat, Ona tuproq, Ona Vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy–ma'naviy merosimiz haqidagi ma'lumotlarni ta'lim–tarbiyaning barcha jabhalariga singdirib borish lozim, aks holda ular orasida «ma'naviy bemorlar» uchrab qolishi mumkin va ularni tarbiyalash esa ta'lim–tarbiya muassasalari oldiga yanada muhimroq vazifalarni qo'yadi, chunki bu «ma'naviy bemorlar» bor joyda g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'yilgan bo'ladi. Shuning bilan birga o'quvchilar ongida millat, miliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni shakllantirish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirishga asosiy omillardan biridir. Bunda inson kamoloti uchun milliy tarbiyamizga xos bo'lgan mehr–oqibat, hurmat–izzat, muruvvat, or–nomus, bag'rikenglik va shu kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Bitiruv malakaviy ishda quyidagi taklif ilgari surildi:**

Faol o'qitish usullari xakida fikrimizni yakunlar ekanmizo'qituvchilarga shuni eslatishimiz kerakki, bu erda ko'rib chiqqan o'qitish usullari o'ziga xos

aloxida misollarga ega. Shuningdek mashxur usullardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilar bilan, ko'nikma, malakalarni ongli ravishda va samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida bolalar borliq dunyoni, moddiy borliqdagi predmet va hodisalarning o'zaro bog'lanishlarini va o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi tushunchalar sistemasini egallay boshlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari nomli mazkur bitiruv malakaviy ishi barcha oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, o'qitish tyexnologiyasida ko'zda tutilgan sharoitlar va vaqti mavjud bo'lgan Defektologiya,Maxsus psixologiya" o'quv kursini olib borishda o'qituvchi tomonidan o'rganilishi mumkin.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratuvchi qulay usul va shakllarni tanlash va qo'llay olish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarni jipslashtirish va ularni o'qituvchi bilan fikrdosh bo'lishiga erishish o'qituvchidan nafaqat chuqur kasbi bo'yicha bilimga ega bo'lishni balki psixologik bilim asoslarini to'g'ri qo'llay bilishni talab qiladi.

Yuqoridagi mashqlarni mahorat bilan o'quvchilarda qo'llash ulardagi diqqat va xotirani rivojlantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 2008.
2. Karimov I.A. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”
3. Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. Toshkent 2011.
4. Karimov I. A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. G'G' Ma'rifat, – Toshkent: 2002 (16.02.02y.).
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z ho'limiz bilan huramiz. – 7– tom. – Toshkent: O'zbekiston,
6. Karimov I.A. Sohlom xalq, sohlom millatgina buyuk ishlarga hodir bo'ladi. G'G' Xalq so'zi. – Toshkent: 2004 (8.12.2004y.)
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport–tarbiyaviy ish yunalishi. – Toshkent: 2006
8. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G'G' Oliy ta'lim (me'yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami). – Toshkent: 2004.
9. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun G'G' «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limning me'yoriy xujjatlari. – Toshkent: 2001.
11. Andreeva G.M. Sotsial'naya psixologiya. M., Aspekt press, 1999.
12. Badmaev B.TS. Psixologiya: kak ee izuchit' i usvoit'. M., Uchebnaya literatura, 1997.  
Davletshin M. Va b. Psixologiya izohli lug'at. T., O'qituvchichi, 1998.
13. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.
14. Nemov R. Prakticheskaya psixologiya. M., Vlados, 1998.
15. Rogov E.I. Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa. M. Vlados, 1999.
16. Siuni A.S. Prakticheskie zanyatiyapo psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
17. Xalilov M.X. Oila psixologiyasi. SamDU nashri, 1998.

- 18.Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi.SamDU nashri, 1999.
- 19.Xerbakov A.I. Praktikum po obxey psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
- 20.Goziev E. Intellect psixologiyasi. T., O`qituvchichi, 1996.
- 21.Goziev E. Va b. Psixologiya muammolari. T., O`qituvchichi, 1996.
- 22.Goziev E. Psixologiya. T., O`qituvchichi, 1994.
- 23.Karimova V. Psixologiya. Toshkent 2000y.
- 24.X.Ibragimov, U.Yo`ldoshev, X.Bobomirzayev Pedagogik psixologiya T-2007.
- 25.P.M.Po`latova. Maxsus pedagogika.T., 1999
- 26.P.M.Po`latova «Yordamchi maktab-internatlarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish». Toshkent. 1996 y.
- 27.Muminova L., Ayupova M. «Logopediya». T., O`qituvchi 1993 y.

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti pedagogika va psixologiya fakultetining defektologiya yo'nalishi bitiruvchisi Normatov Xasanning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

### **TAQRIZ**

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oily o'quv yurtlari fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lib shakillanishini ta'minlaydi

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan bo'lsa, tarbiya amaliy ish va tajriba vositasida amalga oshiriladi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish muhim masaladir. Buni amalga oshirish mazkur o'quvchining jamiyatga moslashuvi, ularning borliqni anglashlari hamda ularni atrofdagilar qanchalik tushunib qabul qilishlari bilan belgilanadi.

SHu sababli bitiruvchi Normatov Xasanning “Boshlang’ich sinf o’quvchilarining korrektsion mashg’ulotlarini o’tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo’llari” mavzusi  
bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsadi va vazifalari, ilmiyligi, amaliy ahamiyati haqida so’z yuritiladi.

Ishning birinchi bobida Boshlang’ich sinf o’quvchilarining korrektsion mashg’ulotlarini o’tkazishning ilmiy-nazariy asoslari, Boshlang’ich sinf o’quvchilarining korrektsion mashg’ulotlarini o’tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik muammo sifatida, Kichik maktab yoshi o’quvchilarining korrektsion mashg’ulotlarini o’tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning amaldagi ahvoli, O’quvchilarga korrektsion mashg’ulotlarini o’tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Ammo bitiruv malakaviy ishda ba’zi juziy bo’lmagan kamchiliklar bor.

Ushbu BMI ko’rsatilgan ba’zi juz’iy kamchiliklarga qaramasdan umum ta’lim maktablarining o’qituvchilari va bo’lg’usi defektologlar uchun foydali ko’rsatma bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ish metodik yordam sifatida foydalanishga yaroqli, shu sababli ishni yuqori baholarga tavsiya etsa bo’ladi.

Bitiruv malakaviy ishi mazmunan tugallangan va DAK talablariga javob beradi. Bitiruvchi Normatov Xasanning “Boshlang’ich sinf o’quvchilarining korrektsion mashg’ulotlarini o’tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo’llari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yaxshi baholandi va himoyaga tavsiya etildi.

**Kollej direktori.**

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti pedagogika va psixologiya fakultetining defektologiya yo'nalishi bitiruvchisi Normatov Xasanning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

## TAQRIZ

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib etishishini ko'zda tutadi.

Shu sababli, ta'limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tayyorlashdan iboratdir. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'quvchilarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatining ma'suliyatini oshiradi. "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishlarida nuqsoni bo'lgan o'quvchi va o'smirlarni o'qitish va tarbiyalash, hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi", deyiladi yangi ta'lim qonunida.

Dunyoda benihoya ojiza, maxsus parvarishga muhtoj bo'lib to'g'iladigan va qisqa vaqtda jonli mavjudot ichida eng yuqori cho'qqiga chiqqan, barcha narsalarga uxshash hukmini o'tkazadigan, tabiat qonunlaridan foydalangan holda uni ham o'z muhofazasiga oladigan, ontogenetik taraqqiyot bosqichida qisqa vaqtda mislsiz katta yo'lni bosib o'tadigan cheksiz qudratga ega bo'lgan zot bu — inson bolasidir. Uning kuch-qudrati aqlidandir.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida qaror topishi jarayonida fuqarolar tafakkurini yangilash va tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Mazkur vazifa fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy jihatlardan har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha soxalarini, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etadi.

Ta'lim bilan tarbiya bolaning ruhiy kamol topib borishi uchun belgilab beruchi ahamiyatga egadir. Kamol topib borishdagi olga harakat esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli bitiruvchi Normatov Xasanning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari" mavzusi bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

BMIning kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsadi va vazifalari, ilmiyligi, amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Bitiruv malakavi ishida o'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlarini o'rganishga qaratilgan nazariy fikrlar yoritilgan.

Ammo bitiruv malakaviy ishda ba'zi juziy bo'magan kamchiliklar bor.

Ushbu BMI ko'rsatilgan ba'zi juz'iy kamchiliklarga qaramasdan umum ta'lim maktablarining o'qituvchilari va defektologlar uchun foydali ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ish metodik yordam sifatida foydalanishga yaroqli, shu sababli ishni yuqori baholarga tavsiya etsa bo'ladi.

Muallif tomondan olib borgan BMI to'liq yakunlangan bo'lib, oliy ta'lim talablariga javob beradi. Yuqoridagilarni inobatga olib ushbu BMIning YaDA huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:**

**dots. G'.Arifxo'jaev**

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti pedagogika va psixologiya fakultetining defektologiya yo'nalishi bitiruvchisi Normatov Xasanning

“Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga rahbar

## **XULOSASI**

Юртимиз келажаги ҳалқимиз, мамлакатимизнинг интеллектуал салоҳиятига, ақл-заковатига, миллий таълим-тарбия тизимини жаҳон андозалари асосида такомиллаштиришга, унинг миллий заминини мустаҳкамлашга, кадрлар тайёрлашга бевосита боғлиқ. "Таълим то'ғрисида"ги Қонун ва "Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури"нинг қабул қилиниши мамлакатда амалга оширилаётган демократик ва иқтисодий о'згаришларни ҳисобга олган ҳолда кадрлар тайёрлаш тизимини кенг қўламда ислоҳ қилишга йўл очиқ берди.

Таълим тизимида содир бўлган туб о'згаришлар мактабгача ёшдаги болаларга таълим-тарбия бериш, уларни жисмоний, маънавий, ақлий жиҳатдан ривожлантириш ва мактабга тайёрлаш жараёнини янгилашни тақазо этди. Ёш авлодга таълим ва тарбия бериш сифатларини оширишга бўлган ташкилий, психологик-педагогик ҳамда методик ёндашувни **такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди**

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaolusullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

ta'lim berish bu tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyaning har biri mustaqil hamda birgalikda amalga oshirilib, bir tomondan o'z

mazmuni, tashkiliy shakl va metodlariga ega, boshqa tomondan esa, ularning maqsadi har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lgan yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining ikki tomoni hisoblanadi. O'quvchi shaxsini shakllantirishda ishlab chiqarish va umumiy faoliyatning o'quv-tarbiya jarayon oldiga qo'ygan talablarini e'tiborga olish zarur. Bu talablar qanchalik amaliyotga to'la joriy etilsa, bo'lajak kichik mutaxassisni kasbiy faoliyatga tayyorlash shunchalik samarali bo'ladi.

O'quvchilarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatining ma'suliyatini oshiradi. "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishlarida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va tarbiyalash, hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi", deyiladi yangi ta'lim qonunida.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishini, ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, o'z fikrini aniq, ravon, mazmunli ifodalay olish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishdek muhim masala hozirgi davrda dolzarb sanalgan vazifalardir.

Maxsus yordamga muhtoj bolalar rivojlanishida, ularning nuqson-larini korrektsiya, kompensatsiya qilishda, ularni ijtimoiy hayotga moslash-tirishda ham estetik tarbiya vositalarining roli katta hisoblanadi.

Shunga bog'liq ravishda bitiruvchi Normatov Xasanning

BMIga tanlagan mavzusi ham muhim hisoblanadi. Mazkur malakaviy bitiruv  
ishida Normatov Xasanning

boshlang'ich sinf o'quvchilarining korrektsion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarining amaliy ahamiyati o'rganilgan. Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsadi, ilmiyligi, ahamiyati ko'rsatilgan.

**Bitiruv malakaviy ishda quyidagi taklif ilgari surildi** Boshlang'ich sinf

o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish

pedagogik muammo sifatida, Kichik maktab yoshi o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning amaldagi ahvoli, O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning foydalanish samaradorligi

psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobida Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, O'quvchilarga korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati,

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining korreksion mashg'ulotlarini o'tkazishda innavatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlarini

o'rganishga qaratilgan nazariy fikrlar yoritilgan.

Ishning xulosa qismida har ikkala bobdan kelib chiqib umumiy fikrlar berilgan. Hozirgi sharoitda ta'limni shunday tashkil etish vazifasi qo'yilmoqdaki u o'quvchilarni interfaol usullar asosida rivojlantirishning metodologik asoslarini mukammal darajada ta'minlaydigan bo'lish.

Bular o'quvchining o'quv mehnatini amalgam oshirishida harakatlantiruvchi kuch bo'lishi etirof etilgan. Ish metodik yordam sifatida foydalanishga yaroqli, shu sababli ishni yuqori baholarga tavsiya etsa bo'ladi. BMI da ba'zi juziy bo'lmagan kamchiliklar bor. Ushbu BMI ko'rsatilgan kamchiliklarga qaramasdan umumta'lim maktablarining o'qituvchilari va defektologlar uchun foydali ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda BMI katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, undan ta'lim jarayonida foydalanish ijobiy psixologik samaralarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Mazkur BMI mavzusi mazmun jihatdan aniq yoritilgan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talabiga to'liq javob beradi. Umuman olganda ushbu BMI oliy ta'lim

talablariga javob beradi. Yuqoridagilarni inobatga olib, uni YaDA huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**

**F. Mamatqulov.**

I